

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAYEVA DILNOZA BAXSHULLAYEVNA

Shavkat Rahmon she’riyatining lingvopoetikasi

magistr akademik darajasini olish

uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. B.E.Qilichev

Buxoro – 2015

Mundarija

1	Ishning umumiy tavsifi	3
2	I BOB. Shavkat Rahmon she'riyati va uning shakllanish jarayoni....	7
3	1.1. Shoir ijodining mavzu va muammo doirasi.	9
4	1.2. Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.	22
5	II BOB. Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan leksemalarning semantik xususiyati	29
6	2.1 Ko'p ma'noli so'zlar	30
7	2.2 Sinonim, antonim, omonim so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari	36
8	2.3 O'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlari	52
9	III.BOB. Shavkat Rahmon she'riyatida uslubiy bo'yoqdorlikning ifodalanishi	58
10	3.1 Uslubiy bo'yoqdor so'zlar	58
11	3.2 Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan eskirgan so'zlarning uslubiy xususiyati	61
12	3.3 Nutq ko'rinishiga xoslangan leksemalar xususida	67
13	Umumiy xulosalar	75
14	Foydalanilgan adabiyotlar	78

Ishning umumiy tavsifi

Ma'naviyat, adabiyot, til, tarix xalqimiz hayotining ajralmas bir qismidir. Bugun jamiyatning yuksalishi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohaning rivojlanishi, ma'naviy madaniyatimizning ravnaqida til madaniyatiga ega bo'lishlik dolzarbdir. Ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi asosan adabiyot va tilning taraqqiy etishiga tayanadi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov "Xalqimiz tayanchi – ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmog'imiz kerak" [1, 8] deya ta'kidlashida o'ziga xos xislat mavjud.

O'zbek xalqi ham o'z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma'naviy boyliklariga ega bo'lgan eng qadimgi xalqlardan biridir. U o'zining ko'p asrlik tarixiy hayoti davomida o'z madaniyatini, adabiyotini va adabiy tilini yaratdi.

O'zbek tili asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib keldi. Ajdodlarimiz zakovati tufayli tilimizning noyob javohirlardan iborat so'z xazinasiga nodir durlar - so'zlar qo'shib, uning badiiy nafosati va imkoniyatlarini beqiyos darajada oshirdi. O'zbek tilining boy va nafis leksik qatlamini uning betakror va sir-asrorlarga to'la badiiy mo'jizalar yaratadigan qudratli lisoniy manbalarini avaylab asrashimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...Eng muhim vazifa shundan iboratki, o'zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab yanada boyitishimiz, ulug' ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo'lmog'imiz darkor" [2, 12].

"Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar" [3, 83].

O'zbek adabiyotida yirik iste'dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo'ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o'ziga xos dunyo-

qarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko'ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go'zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko'pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi.

Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so'z boyligiga ega bo'lishi, so'zning ta'sir qudratini his eta olishi, har bir so'zni ma'no nozikligini ilg'ab olishi so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o'rin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek adabiyotining istedadli shoirlaridan biri Shavkat Rahmonning go'zal misralariga, qator tarjimalaridagi o'ziga xos xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi o'ziga xoslikdir. Uning ijodida o'xshatish, metafora, jonlantirish kabi badiiy til vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Iste'dodli o'zbek shoiri Shavkat Rahmon she'riyat osmonida tutgan o'rni beqiyosdir. Uning she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar va so'z qo'llash mahorati e'tirofga sazovordir. Shoir ijodini, uning so'z qo'llash mahoratini o'rganish uchun Shavkat Rahmon she'riyatining leksik xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Bunda Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan ko'chma ma'noli so'zlarning ma'no xususiyatlari; sinonim, antonim, omonim so'zlarning qo'llaninishi; o'z va o'zlashgan qatlam so'zlarining qo'llanish darajasi; emotsional-ekspressiv bo'yqadorlikning ifodalanishi, eskirgan so'zlarning qo'llanishi kabi masalalarni yoritish lozim.

Yuqorida qayd etilgan masalalar esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar I. Rasulov, A. Shomahsudov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamovlar tomonidan olib borilgan bo'lsa, keyinchalik M. Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lisoniy tahlili", E. Qilichevning "Badiiy tasvirning leksik vositalari" va S. Karimovning ilmiy tadqiqotlarida bu o'z aksini topdi. Ko'rinadiki, leksikologiya sohasida talaygini ishlar amalga oshirilgan. Bu boradagi ishlarning

bevosita davomi sifatida biz o‘z ishimizda Shavkat Rahmon asarlarining leksik xususiyatlariga e‘tibor qaratdik.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Shavkat Rahmon she‘riyatining badiiy xususiyatiga e‘tibor qaratish, ijodkor she‘rlarining leksik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- Shavkat Rahmon ijodi bilan tanishish;
- shoir she‘riyatida qo‘llangan ko‘chma ma’noli so‘zlarni ma’no xususiyatlarini izohlash;
- ijodkor she‘rlaridagi so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini aniqlash va izohlash;
- o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlarining qo‘llanish darajasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- Shavkat Rahmon she‘riyatida emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlarning qo‘llanishi va ma’no xususiyatini izohlash;
- eskirgan so‘zlarning qo‘llanishi va ularning uslubiy xususiyatlarini izohlash;
- shoir she‘riyatida nutq ko‘rinishiga xoslangan leksemalarning qo‘llanishini izohlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko‘ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: leksikologiyaga doir turli ilmiy adabiyotlar, darsliklar, qo‘llanmalar, maqolalar hamda internet ma’lumotlaridan foydalandik. Shuningdek, shoirning quyidagi asari ham manba vazifasini o‘tadi:

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy meroslar va ularni tahlil qilish va o‘rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi tilshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik.

Tadqiqotda E.Qilichev, H. Jamolxonov, R.Sayfullayeva singari olimlarning ilmiy fikr va xulosalarga tayandik.

Ishning ilmiy yangiligi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi Shavkat Rahmon she'riyatining leksik xususiyatlari ilk bor tahlil qilinishidir.

Biz Shavkat Rahmonning ajoyib so'z ustasi, mohir ijodkorligini yaxshi bilamiz. Ko'p tadqiqotlar, ilmiy ishlar ijodkor asarlarini adabiy jihatdan o'rganishga qaratilgan, ammo shoir ijodining til xususiyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan.

Ishda Shavkat Rahmon tomonidan qo'llanilgan juda ko'plab xalqona leksemalar, sinonim so'zlarning ma'no qirralari, antonim so'zlarning badiiy xususiyatlari, ko'p ma'noli so'zlarning va ma'no ko'chirish turlarining go'zal na'munalari, eskirgan so'zlarning uslubiy xususiyatlari hamda o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari tahlil qilindiki, bu shoirning poetik mahoratini yanada kengroq targ'ib etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda lingvistik poetikaning qator muommolariga doir xulosalarimiz kelgusida bu sohada ish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun ma'lum yo'l - yo'riqlar berishi mumkin. Badiiy asarning lisoniy – poetik yaxlitlikda o'rganilishi badiiy asar tahlilida yangicha yo'nalishning o'rinlashuvi va takomillashuviga ko'maklashadi.

Lingvopoetik tadqiqotlar tilimiz tabiatiga doir qator kashfiyotlar qilish, o'zbek xalq poetikasi taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi, hozirgi adabiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi.

Shoir ijodidagi leksik vositalar, ulardan foydalanishda ijodkor mahoratini yoritib berish bo'yicha qilingan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi tadqiqotning ilmiy qimmatini oshiradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 100 bet.

I BOB
SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI
VA UNING SHAKLLANISH JARAYONI

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ovozi va va ijod olami bilan nom qozongan, she'riyatimiz maydonida o'z ijod maktabini yaratib ketgan zabardast shoirlarda biri Shavkat Rahmondur. Shoir o'tgan asrning 80-yillarida kuyunchak ovozi va isyonkor ruhi bilan adabiyotimizda alohida ko'zga tashlandi. U nainki har bir she'r, balki har bir so'z ustida mahorat bilan ishladi. Bir-birini takrorlamaydigan satrlar, unutilmas badiiy obrazlar yaratish mahoratiga ega bo'lgan Shavkat Rahmon ijodi o'zbek adabiy tanqidchiligidan yuksak e'tirofi va bahosiga musharraf bo'ldi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli o'laroq, faqat o'z kayfiyatini tasvir etish bilangina chegaralanmasdi, u hamisha millatning dardi, xalqining armonlarini ifodalashga intilgan edi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov buni quyidagicha izohlaydi: "Shavkat Rahmonning ilk she'rlaridan tortib so'nggi misralarigacha qalbi, tabiati, butun borlig'i vaziyatga qarab tovlanavermaydigan mustahkam e'tiqodi, sodda va mag'rur, kurashchan va jasur siymosi mana men deb turibdi" [25, 56].

Odatda, ijodkorlarning ilk to'plami, ijoddagi ilk qadamlaridan sezilarli salmoq talab etilmaydi. Chunki dastlabki mashqlarning xom bo'lishi mumkinligi haqidagi haqiqatga o'rganib qolingan. Biroq Shavkat Rahmon "Ilk she'rlari bilan ommaning diqqatiga, e'tiboriga tushdi. Bu kamdan-kam ijodkorlarga nasib etishi mumkin bo'lgan baxt" [77] edi. Qolaversa, uning ijodda o'z so'zini ayta olishga o'rgatgan va dastlabki ilhom uchqunlarini bergan tug'ilgan tuprog'i – O'shni ham unutmaslik kerak. Chunki aslida: "Shavkat Rahmon shoir sifatida O'shda shakllangan edi. To'g'ri, u Moskvada – Adabiyot institutida ta'lim oldi, Toshkentda ham ustozlaridan ko'p narsa o'rgandi. Biroq u shaxs sifatida O'shda shakllangan edi. 19-20 yoshlarida SHAXS bo'lib shakllanadi, keyin o'sha shaxs sayqallanadi, o'zligini namoyon qiladi"[77]

Shoirning birin-ketin nashr etilgan she'rlarini mutolaa va tahlil qilish davomida uning ana shu ilk manbalardan yuksalganiga iqror bo'lamiz. Shavkat

Rahmonning she'rdan she'rga o'sish tadrijini, she'riyatining shakllanishini alohida tadqiq qilgan adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam quyidagi mulohazalarga to'xtaladi: "Munaqqidlar shoirlar haqida gapirisharkan, «u she'rdan she'rga, kitobdan kitobga o'sib bordi» degan iborani ko'p qo'llashadi. Agar Shavkat Rahmon ijodiga shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, quyidagilarni alohida ta'kidlab aytish joizki, u adabiyotga ilk she'rlaridanoq o'z qiyofasi, o'z badiiy so'zi bilan kirib kelgan. Shoirning 1978-yilda ilk to'plami — «Rangin lahzalar» nashrdan chiqdi. Shavkat Rahmon ilk to'plami bilanoq she'riyatga o'z so'zi va ovozi bilan kirib keldi. Jajjigina kitobni varaqlar ekanmiz, biz bir vaqtning o'zida ham vatan va tabiat manzaralari aks ettirilgan, yosh qalbning muhabbat, hayot va o'limga nisbatan bo'lgan jo'shqin munosabatlari ifoda etilgan lirikasiga, ham jamiyatning va dunyoning dolzarb muammolariga bag'ishlangan zalvorli ijtimoiy she'riyatga duch kelimiz. Shoir o'zining kimligini birinchi urinishdayoq o'quvchiga tanita olgan. Uning birin-sirin dunyo yuzini ko'rgan «Yurak qirralari» (1981), «Ochiq kunlar» (1984), «Gullayotgan tosh» (1985), «Uyg'oq tog'lar» (1986), «Hulvo» (1987) kabi she'riy to'plamlari 1989 yilda esa Shavkat Rahmon ulug' ispan shoiri Federika Garsia Lorkaning «Eng qayg'uli shodlik» deb atalmish to'plamini asliyatdan tarjima qilib nashr ettirdi. Nihoyat, shoirning vafotidan bir yil keyin, lekin uning o'z qo'llari bilan tartib bergan «Saylanma»si 1997 yilda o'quvchilar qo'liga borib etdi. Mana, shoirning bor-yo'q bisoti. Lekin hajman juda oshib-toshib ketmagan shugina merosning ma'naviy yukini ko'tara olish uchun o'quvchi juda uzoq, ba'zan hatto bir umr tayyorgarlik ko'rishi mumkin, shundayam omad kimga kulib boqadi, kimga yo'q.

Shavkat Rahmon umrining so'nggi yillarida tartib bergan kitobi uning "Saylanma"sidir. "Kitobdan faqat ilgari chop etilgan to'plamlaridan saylangan lirik-falsafiy she'rlargina emas, balki O'zbekiston mustaqilligi arafasida va undan keyin, o'lim to'shagida qog'ozga tushirilgan (shundan ba'zilar ilk bora e'lon qilinmoqda) badiiy mo'jizalar ham o'rin olgan. O'ylaymizki, vido kitobi XX asr o'zbek she'riyatida, umuman, umumturkiy adabiyotda chinakam hodisa bo'lgan

SHOIR shaxsiyati va uning ko'ngil kengliklari-yu yurak qirralari to'g'risida o'quvchiga to'la-to'kis tasavvur beradi" [58, 114-115].

Chindan ham qalamini eng katta g'animga qarshi ham kurasha oladigan qurol deb bilgan shoir umrining so'nggi yillariga qadar ham o'zi sevgan tog'lar kabi o'sishda, shakllanishda davom etaverdi. Shavkat Rahmon otliq ijod bog'idan qolgan sarxil mevalar har gal totib ko'rilganida hayratlantiradi, g'aflatdan uyg'otadi, yig'latadi ham. Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riyati ilk she'rlardan tortib, umrining so'nggi kunlarida yozilgan misralarga qadar shakllanishda davom etdi.

1.1. Shoir ijodining mavzu va muammo doirasi

Shavkat Rahmon she'riyatining mavzu ko'lami juda keng. Shoir o'zi kuylagan har qanday mavzuda yonib, to'lqinlanib, joiz bo'lsa, dildan azoblanib kuylashga o'rgangan. U, ayniqsa, ijtimoiy hayot motivlarini keng ko'lamda aks ettirgan. Shavkat Rahmon qalam tebratgan asosiy mavzular va shoir keskin bahslar qilgan muammolar sirasiga Vatan, erk, tabiat, inson va jamiyat, ishq, baxt va armon, hatto o'lim kabi eng e'tiborga molik mavzularni qayd etish va tahlil qilish lozim. Quyida bularga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Shavkat Rahmon ijodining gullagan davri eng og'ir kunlarga – mustabid Sho'ro tuzumining so'nggi yillariga to'g'ri keldi. Xalqning og'ir ahvoli, ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy qaramlikka qarshi isyonkorlik ruhi she'rga ko'chgani sir emas. Buning oqibatida she'riyatda, xususan Shavkat Rahmon ijodida **ijtimoiy mavzuning** muhimroq o'ringa chiqqanini ko'ramiz. Ammo shunisi e'tiborliki, Shavkat Rahmon she'rni publitsistikaga – fikrning qurboniga aylantirib yubormadi. Haqiqatga, sadoqatiga sodiq qoldi.

Xalqimiz hayotida kechayotgan voqealarning hech biri Shavkat Rahmon nazaridan chetda qolgan emas. U har doim she'rga xos jasorat bilan birinchilardan bo'lib yaqinlashib kelayotgan har qanday xavfdan elni ogoh qildi, har qanday zulmga, jaholatga qarshi turadi. "Bir vaqtlar do'sti yo'qligidan kuyinib she'r yozgan shoir endi qurib tugayotgan dengizning hasratida. Millatining manqurtlashib, jismonan zaiflashib borayotganidan alamda. U yana so'zi – she'ri

bilan birga bu dardu mashaqqatlarni boshida o'tkazadi, u orqali hasratini to'kib soladi:

*...So 'nggi zuryodimni
zaharlar qullar,
so 'nggi chechaklarim aynib so 'lajak.*

Ey, beklar, zahar ich – o'zbeqing qolib, o'zgaga bo'ysunding, o'lganing shuldir.

Shundanmi, boshida teridan qolib, (bu –manqurt degani!) saksovul singari mayishgan budun.

Shoir zamon muammolari – millatning dardini ifodalar ekan, tarixga bot-bot murojaat qiladi:

*Hiylagar do 'stlarday yaqinlashdi yov komillik qidirgan jasur erlarga.
Ilavsin yigitlar,
bobur yigitlar sajdaga bosh qo 'ydi
teskari qarab gullarni kemirib yig 'ladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.*

Shavkat Rahmon she'rlari faqat dilning emas, jasoratning ham tarjimonidir. Shoir ijodini kuzatib borgan o'quvchi uning she'rdan-she'rga yuksalib, kurashchanligi ortib borganligini ko'radi" [78]. Ijtimoiy hayot va zamon muammolarini she'riyatda aks ettirmaslikning iloji bo'lmagan davrlar ham bo'lganligini unutmagan holda ta'kidlash joizki, "... she'riyat ham, xususan, XX asr o'zbek she'riyati ham qaysidir ma'noda ijtimoiylashdi. Binobarin, Shavkat Rahmon ham, ko'pincha, ijtimoiy mavzularga qo'l urishga majbur bo'ldi. Oqibat shu bo'ldiki, hayotning shirin va adolatli bo'lishiga halaqit berayotgan har qanday narsa va kimsalar she'riyatga ko'chib o'tdi, shoirning dushmanlari ko'paydi:

*Dushmanim ko 'paydi,
hatto, o 'liklar
Bahorni sog 'ingan qutlug ' oylari,
hilvatda yig 'ilib yurdi sho 'rliklar
Changalda bo 'hton-u ig 'vo loylari...*

Biroq she'riyatga aynan shu xil kayfiyatni kirib kelishi poeziya deb atalmish yuksak olamni qaysidir ma'noda oyog'idan tortib erga tushirib qo'ydi. Natijada biz, ko'pincha, she'r o'qirkan, qalban yuksalish va poklanish o'rniga turmushning deyarli har kuni o'zimiz duch kelayotgan chirkin nuqtalariga takror ro'para kelib qiynalamiz. Lekin ayni chog'da "buning uchun shoirdan o'pkalash ham noto'g'ri bo'lar, chunki unda simobdek qaynab turgan ijtimoiy mavzularni qo'yib, gul va bulbul dunyosiga sho'ng'ib ketolmay qiynalayotgandir", degan o'ylar ham boshimizda aylanadi. Muhimi, Shavkat Rahmonga ijtimoiy mavzuni shaxsiy mavzu sifatida yoki buning aksi: o'z shaxsiy dardini ijtimoiy dard darajasida kuylay olish baxti nasib etgan. Ya'ni u ko'pning dardini o'z ko'ngil prizmasidan o'tkazib, uni shaxsiylashtira (personifikatsiya) bilgan. Natijada umumdard shaxs dardiga, "men" dardiga aylangan" [25, 121]. Aytish mumkinki, shoirning ijtimoiy ruhdagi barcha she'rlari yurak hayqiriqlari bo'lib, aksariyat millat, xalq, odamlarning uxloqligidan o'kinishlar, yangi va uyg'oq hayotga chorlovlardir.

Shoir she'riyatining bosh mavzusi – **ERK**. Uning negizida yurt ozodligi, millat hurligi, Turkiston va turkiylar dardu g'ami, Vatanning o'tmishi, buguni va ertasi uchun qayg'urish hissi yotadi. Tosh haqida, gul haqida, baxt yo armon haqida yozganida ham uning erkka tashnaligi sezilib turadi. Hatto manzara she'rlarining umumiy pafosida ham erk va ozodlik g'oyasi yashirin. Shavkat Rahmon erk mavzusini kuylashda, shubhasiz, mujohidlik, jo'mardlik, mardlikka oshuftalik; xoinlik, qo'rqoqlik, sotqinlik, shaxssizlikdan nafrat singari ustuvor yo'nalishlarga tayanadi.

"Yetmish yildan ortiq umr ko'rgan xalqlar turmasi - sobiq Ittifoqda millatlar erki va tengligi shunchaki bir soxta ta'limot edi. By zulm saltanatining hamma joyi soxta, yolg'on shior - «Hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun», «Barcha millatlar tent», «Yashasin leninchi g'oyalar», «Yashasin sotsializm», «Kim biz bilan emas, bizga dushman» kabi safsatalar bilan to'la, bijg'igan, hilvirab ketgandi:

*Qular qonda suzgan qasrlar,
judab yitar sangin saltanat,*

*So‘qir bo‘lar acpiy nahsdan
bino bo‘lgan yovuz shaytanat.*

«Asriy nahs» - bu Chor istilosi va uning murakkab davomi bo‘lgan bolshevizmning 130 yillik bosqinchilik zulmi, kasofati - nahsi. Tarix ne-ne bosqinchi imperiyalarni sovrib, judab, yo‘qolib, yer bilan yakson bo‘lganiga guvoh. Bu ham oldingi yovuz saltanatlardek qismatga ega. Chunki u yovuzlik, bosqin siyosati, necha asrlar o‘z qo‘li, fe‘li, qilmishi bilan bino qilgan, doya bo‘lgan o‘z zulmi, iflosligi, yuvuqsizligidan ko‘r bo‘ladi, qulaydi:

*Kelar,
kelar buyuk mehrdan
kiftlar kiftga bosilajak kun,
G‘amdan forig‘ jez kallalar ham
ko‘kraklarga osilajak kun.*

«Kelar» so‘zining ikki bor takrori botinida ertangi kunga qat’iy ishonch, xitob, chorlov pafosi bor. Kiftlar kiftga bosilajak kun - bu ulug‘ birlik orzusi. Chunki ulug‘ birlikka maslaksiz erishib bo‘lmaydi. Bu bandda butun bir yovuzlik saltanatida ezilgan millatlarga xitob, birlashishga davat pafosi ustuvor:

*Porlar toshna do‘ngan so‘zlarim,
Porlar mangu odamiy, ruhim,
Porlar Haqqa tashna ko‘zlarim,
Xudo bergan mangu anduhim,
yorug‘ anduhim... (-B. 155).*

Anduh – odamzodning butun bir dardu-g‘ami. Shoir uchun yorug‘ anduh –bu yurt, millat ozodligi, istiqloli, yovuzlik saltanatining so‘qir bo‘lib, o‘z nahsidan qulash kuni. Lekin hozircha lirik qahramonning isyonkor, erkparvar so‘zlarini tinglaydigan jamiyat, shaxs yo‘q. Shu bois so‘zlari, orzulari vaqtincha toshga do‘ngan. Bir kun keladi, imperiya qulasa, uning ham ruhi chin odamiy qiyofa, hurlik kasb etadi. Mustamlaka mamlakatda odamiy ruh bo‘lmaydi, bo‘lsa-da, notavon, muztar, zabun, nochor, ezilgan bo‘ladi. Shu maqsad, shu a‘mol, e‘tiqod

yo'lida u Haq – Alloh taoloning ham marhamat, ham shafqat, ham qo'llashidan, ham haqiqatning qaror topishidan umidvor.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Istiqlol mavzusi shoir she'riyatining asosini tashkil etadi. Shu bois bu haqidagi batafsil mulohazalarimizni ikkinchi bobning uchinchi faslida bayon etamiz.

Shavkat Rahmon she'riyatida eng ko'zga ko'ringan va katta ko'lam kasb etuvchi mavzulardan biri **VATAN** mavzusidir. Aslida shoir hamma mavzuda she'r yozganida – u xoh daraxt haqida bo'lsin, xoh tosh haqida bo'ladimi, kuylab yozadimi, yig'labmi, barida shoirning Vataniga bo'lgan mehr-muhabbati yashaydi. Masalan, shoirning “Rangin lahzalar” kitobi mo'jazgina “Vatan” to'rtligi bilan boshlanadi:

Joylashgansan shunchalar chuqur...

O'z tubiga yashirgan yurak.

Senga yetib bormaklik uchun

Uzun umrim yetmasa kerak [73].(Keyingi misollar shu manbadan olindi)

Dastlabki o'qishdayoq vujudingizning allaqayerlarini titratib yuboradi. Tezda yod olasiz. Bir qarashda juda sodda, ammo, ona yurtga bo'lgan mehrning eng samimiy iqrorigidir. “She'riyatga ko'chgan shaxsiyat” nomli maqolasida Nurulloh Muhammad Raufxon shoirning aynan mana shu she'ridan olgan hayratini quyidagicha ifodalagan edi: “...u paytlar vatan haqida qanaqa she'rlar yozilgani va o'qilgani ko'plarga qorong'i. Vatan, ko'pincha, yuzalarda bo'lardi, vatanni sevish ham yuqorilardan talab etilgani uchun o'sha yuqorilarga yoqadigan tarzda yozilar va bayon qilinar edi. Shavkat Rahmonning Vatani esa juda chuqurlarda (buning ustiga, odamni o'ylantiradigan uch nuqtasi bilan) joylashgan. Yerning emas, dengizlarning emas, yurakning chuqurlarida. U ko'z-ko'z qilinmaydi, uni “yurak o'z tubiga yashirgan”. Yomon ko'zlardan, yomon niyatlardan va soxta muhabbatlar-u soxta sifatlardan asragan. Axir soxta muhabbat izhorlari uni xo'rlashi mumkin, u bunday yuzakiliklardan baland turadi. Chuqurliklarda yuksaklik xos unga! Unga hatto sevgi izhor qilinmaydi. Minbarlarni egallab, ko'kraklarga mushtlab u haqda jar solinmaydi. U yuraklarda bo'ladi, unga bog'liq

tuyg'ular tomirlarda oqadi. U sog'inib izlanadi, axtariladi. Ayniqsa, mustamlaka sharoitida. Ayniqsa, xalqning erki o'z qo'lida bo'lmaganida. Uni chinakam sevgan kishi uni topish va anglab etish uchun qiyin safarga o'tlanadi. U shunchalar chuqurlarda joylashgani, yurak uni shunchalar tubiga yashirganidan "unga etib bormaklik uchun uzun umr yetmas"ligi ham mumkin...

Shavkat Rahmon butun ijodi bilan, butun o'y-hayoliyu qayg'ulari, dardlari bilan shu Vatan sari – mushtdekkina yuragi tub-tubiga yashirgan, o'zigina taniydigan, suygan va sog'ingan ana shu sirli makon sari yurdi, talpindi. Bir paytlar shirin orzular og'ushida "Senga yetib bormaklik uchun Uzun umrim yetmasa kerak", deb chamalagan yigirma besh yasharlik yosh shoir taqdirning buyuk yozug'i ila, qirq olti yoshida, og'ir kasalga chalinib, o'lim bilan olishib yotgan pallalarida bitilgan (balki) oxirgi she'rida ortida qolayotgan olamga "Abadiyat oralab O'shga ("Vatanga" deb o'qing. – N.M.R.) qachon etamiz? deb savol qo'ydi!

Ayt, ey xasta bulbulim,

O'shga qachon etamiz?

Yashil bog'lar sarg'ardi,

Mag'iz bo'ldi gujumlar.

Oh, voy, muncha yo'l og'ir,

Bulbulim...

Ulkan soat o'rtasida

Madorim yo'q yurmoqqa,

Qashqirlar davrasida

Sudralaman turmoqqa.

Shunda qolib ketsam gar

netamiz?

Abadiyat oralab

O'shga qachon etamiz?

Qorli tog'lar bag'rida

Begin – O'shim ko'rindi,

Sulton – O'shim ko'rindi...

“Ey xasta bulbulim...” derkan, Shavkat Rahmon yurakni – o‘zi ardoqlab, umr bo‘yi suyib-sog‘inib yashagan Vatanni “o‘z tubiga yashirgan yurak”ni nazarda tutadi. Va: “Ey yuragim – ey xasta bulbulim, bu ahvolda Vatanga qachon etamiz?!” deydi. Vatanni axtarib yo‘lga chiqayotganida shoirning bu tasmoli tagida qachondir bir kun Vatanga yetishish ilinji ham bor edi, umidvorlik bor edi, lekin shoirning yuragiga yashiringan Vatan chindan ham juda-juda chuqurliklarda ekan, afsus, unga yetib borishga Shavkat Rahmonning taqdirda belgilangan umri etmadi. Shoir bir umr talpingan u Vatan qanday vatan edi? Uning o‘xshashi, cheki-chegarasi bormi o‘zi? Qayerda boshlanib qayerda tugardi u Vatan? Tugarmidi? Izlagan, topadigan narsami U? Vatanni topdim, degan bormi bu dunyoda? Qancha yil yashash kerak Uni topish uchun? Vatanning nimaligini bilgan bormi?..

*“Ko‘zingizni oching, qo‘rqmang,
ziyodan qamashsin, og‘risin, mayli,
mayliga yashamak bo‘lsin qiyinroq,
ochiqligi tufayli”*

satrlarining Shavkat Rahmon ijodi o‘zak masalasiga – Vatan mavzuiga bog‘liq joyi yo‘qmi? Bor! Bor bo‘lganidayam to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi. Axir, Vatan sari faqat ochiq ko‘z bilan boriladi! Vatanni faqat ko‘zi ochiqlargina taniydi! Chinakam vatanparvar ko‘zini yirikroq ochadi, mayliga, ochiqligi tufayli yashashi qiyinroq bo‘lsin, mayliga ko‘zlari qamashsin va yo og‘risin” [52? 172]. Shoir Vatanni shunchaki sevibgina qolmay, uning taqdiri uchun kuyikadi ham. Shu bois u odamlarni ko‘zi ochiq yashashga chaqiryapti. Zero, xira bosgan yoki g‘aflatda qolgan ko‘zlar ertangi kunga qanday nigoh tashlay oladi, uxloq ko‘zlar bilan buyuk qadamlar bosib bo‘larkanmi? Shu kabi savollar shoirni bir umr o‘rtantirib kelgan.

Shoir 1984-yilda bitilgan she’rida haqli ravishda quyidagi misralarni bitadi:

*Men orom borligin unutib qo‘ydim,
bag‘rimga chaqinlar tegdi daf’atan.
Sendan-da ulug‘roq narsa yo‘qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!*

Shoirning sochi oqarganda u atigi 34 yoshda edi. Bu hali navqiron yosh. Lekin shoir uni «sochi oqarish» sifati bilan belgilayapti. Chunki u Vatanni yanayam avvalroq anglash kerak edi, deb biladi.

*Buncha kech angladim,
nega buncha kech...
anglasam loaqal o'ttiz yil avval,
loaqal tug'ilmay turib anglasam...
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.*

Qarang, shoir Vatanni hali go'dakligidan anglab yetmaganidan afsusda. U o'ttiz to'rt yoshida anglaganlarini 4 yoshimda anglasam nima qilardi, deya yonmoqda. Bu Shavkat Rahmon ko'ksida Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatdan dalolat emasmi? Ayni paytda shuni alohida qayd etish kerakki, shoirning she'r yozilmasidan oldin va she'r yozilgan paytdagi Vatan haqidagi tasavvurlari bir-biridan farqlangan bo'lishi mumkinmi? «Naqadar kechikib angladim seni» deydi shoir yana quyiroqda. Nega kechikib? Axir u o'zining birinchi kitobining ilk she'rini «Vatan» deb nomlagandi. Qolaversa, uning ko'plab she'rlari ona diyorning u yoki bu shakldagi tarannumidan iborat bo'lib keldi» [52? 173].

Shoir she'rlari she'rxonni o'zligidan g'ururlanishga, o'zga makonlardagi ushalmas orzudan ko'ra o'zida bor boylik – tirik vatanni asrashga, uning uchun kurashishga undaydi:

*Bu yerda men mangu yasharman
nurlarin sarflab ko'zimning.
Birovning yerimas bu yerlar,
O'zimning yerimdir, o'zimning [75].*

Anglash mumkinki, Shavkat Rahmon bir yurt bolasi sifatida o'z eli, vatani uchun qayg'urmoq, uning dardi va quvonchini o'zidan ham avval o'ylamoq, unga asl baxtlarni ilinmoq borasida kuylaganlari, muhrlab ketganlari ibrat olishga arzigulikdir.

Shoir ijodining yana bir etakchi mavzusi **TABIAT**dir. Sh. Rahmon o'z she'rlarida tabiatning rangin lahzalarini aks ettiradi. Shoirning e'tiboridan

tabiatdagi hech bir zarra –tog‘-u toshlar, daraxtlar, gul-u chechaklar, qush-u hayvonlar, hatto, tabiatning bir qismi bo‘lgan shamol-u yomg‘irlar chetda emas. Shu bois ham shoirni biz haqiqiy ma’noda tabiat oshig‘i va kuychisi, deb atay olamiz. Sh. Rahmonning tabiat mavzusini kuylash mahorati adabiyotshunos olim Musulmon Namoz tomonidan tahlil qilingan bo‘lib, muallif maqolasidan o‘rin olgan quyidagi mulohazalar e’tiborga molikdir:

“Bog‘larda ko‘zlarim qamashar

shoxlarga ilingan oylardan...

Toshlarga urilib, sharqirab,

yulduzlar oqadir soylarda.

Bosdim oq ilonni to‘satdan –

bilanglab oralab sayhonni...

Daraxtzor yelpiydi bemador

saraton kuydirgan osmonni.

Shavkat Rahmonning tabiat poeziyasiga murojaat qilishida chuqur ramziylik bor. Bu qaysidir ma’noda, tasavvuf falsafasi bilan, nokomil jamiyat hayotidan yuz burish va faqat ruhiy takomil bilan shug‘ullanish lozim, degan qarashlar bilan bir darajada uyg‘un. Zero, hamma narsa faqat qiyosda oydinlashadi. YAshab qolish uchun ma’naviy asos topish lozim edi:

Qaytdim yorug‘ yulduzlarimga,

shu‘lalarga to‘ldi har onim.

Meni ko‘rib qo‘zg‘alib ketdi

adirlarning sariq karvoni.

Ha, ma’naviy asos topmoq uchun “yorug‘ yulduzlarga” – ruhning o‘z-o‘zini shakllantirish asoslariga QAYTISH kerak edi. Faqat shundagina qalbning har oni shu‘lalarga to‘lishi – o‘zini quvg‘inga duchor qilgan olomondan yuqori ko‘tarilib, mangu uyg‘unlikka erishish mumkin bo‘lardi. Ma’naviy asosiga qaytgan qalb o‘zini shakllantirgan eng oliy barkamollik – mangu uyg‘unlikni faqat tabiatda uchratishi mumkin. Shuning uchun ham QAYTIB KELGAN QALBni ko‘rgach, TABIATning qo‘zg‘alib ketishi muqarrar.

*Tumanlarni qo‘porar tog‘lar,
giyohlar ham ko‘zin yoshlaydi.
O‘shning ko‘hna quchoqlarida
ko‘nglim yana o‘sa boshlaydi.*

Ha, toza, sof, bokira qalb tabiatning farzandi edi. U jamiyat qo‘yniga otilgach, tabiatda o‘z farzandi taqdiriga, bu buzilib borayotgan dunyodagi so‘nggi ilinjining qismatiga havotir tug‘ilgan bo‘lsa, ajab emas. Har holda, shoirning shunday o‘ylashga, tasavvur qilishga haqqi bor. Va bu farzandning qaytganidan “uzoq kutgan yuraklar xotirjam yashay boshlashi”da ham nedir bir qonuniyat borligini sezish mumkin.

Odam, baribir ham, o‘zini jamiyatdan butunlay chetga torta olmaydi. Shavkat Rahmonning she‘rlariga qarab hukm qilish mumkinki, shaxs o‘z ruhining kengliklariga qanchalik chekinmasin, qanchalik o‘z-o‘zi bilan mashg‘ul bo‘lmasin, yoki buyuk jamol – oliy mukammallik axtarib tabiatning qoshiga sajda qilib bormasin, baribir alaloxir shaxs o‘zi kim, uning jamiyatdagi o‘rni qanday degan savollar ko‘ndalang bo‘laveradi...” [76].

Shoir insonga tabiatning bir bo‘lagi sifatida qaraydi, shuning uchun ham tabiat va uning borlig‘ida kechayotgan hodisotlar inson «men»iga bevosita ta’sirda ko‘rinadi. Qolaversa, tabiatning mo‘jizasini, Tangri taolo ato etgan buyuk qudratini so‘z vositasida she‘riy asarlarida o‘ziga xos tarzda ifoda etganligi shoirning tabiat poeziyasining yuksakligini yaqqol namoyon qiladi. “Shavkat Rahmon bir she’rida:

*Hayr, Bahor! Alvado, Bahor!
Rahmat oshiq gullaring uchun,
shoxlarimga zumrad g‘o‘ralar,
qadab qo‘ygan qo‘llaring uchun.
Hayr, Bahor! Alvado Bahor!
Ushalmasdan qoldi armonim.
Biroq kutgil, dedi-yu bahor
lablarimga bosdi barmog‘in.*

- deydi. Chinakam shoirdan yana bundan ortiq nima kutish mumkin? O‘ta og‘ir sharoitda ijod qilgan shoirning «Bahor»ga aytilgan vidosi – millat ozodligi uchun qaratilgan qalb nidolari emasmi? Shoir tabiatning eng ulug‘ ne‘mati – yashillik va go‘zallik haqidagi yuksak ideallarining faylasufona tashbehlari emasmi? She‘rning intihosiga teran nigoh solsangiz, qaysidir faylasuf adibning iborasi ega tushadi, «Tiriksan hali o‘lmagansan, umid bilan yashash kerak», degan. Shoirning lirik qahramoniga ham «Bahor» umid va taskin beradi” [77]. Shavkat Rahmonning tabiat va uning xos elementlariga alohida e‘tiborli ekanligi va ulardan ham katta falsafa izlashini o‘zi tartib bergan “Saylanma” (1997 yil)ning tuzilishidan ham anglash mumkin. Shoir tabiatning to‘rt faslini umrining bo‘laklariga qiyoslab, to‘rt faslga xos nomlangan bo‘limlarga aynan bahor, yoz, kuz, qish mavzusidagi she‘rlarini saralab, joylashtiradi. (Shu o‘rinda A. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni va uning to‘rt faslga bo‘linganligi haqidagi an’anani eslang!)

Birinchi fasl “Hamal” she‘ri bilan ochiladi:

*Erib bitdi poyonsiz qorlar,
yana ko‘hna zamin tulladi.
Vodiydagi ulkan o‘riklar
bir kechada oppoq gulladi.*

Bahor... Darhaqiqat, unib-ko‘karish fasli. Shavkat Rahmonning birinchi fasli ham mohiyatan shunday fasl va unda “Kunlar pisha boshlaydi yana, ranglarini boshingda yelar” yoki “Yechib oppoq ko‘ylagini vaqt, kiydi yashil gulli ko‘ylagin” va yohud “Ishon, odam, bahorga ishon, qara, go‘dak kabi beg‘ubor” deb boshlanuvchi she‘rlar talay bo‘lib, bular ham inson umrining gullab-yashnayotgan pallasi kayfiyatining mevasidir.

Ikkinchi fasl “Yoz ravishi” deb nomlanadi. E‘tibor bering, birinchi fasl bahorga atalgan she‘r bilan ochilgandi, ikkinchisi esa yozdan boshlanmoqda.

*...Qizib ketar yer tomirlari...
Tunga iliq bo‘ylar taralar.
Birdan qaynoq yoz oqib kelar*

Jimib qolgan bog'lar oralab.

Bu fasldan joy olgan she'rlarni ismlariga nazar tashlashning o'ziyoq gap inson umrining qaysi bosqichi – qaysi fasl haqida ketayotganidan darak berib turadi: “Tong ko'ksida”, “Suronlarni...”, “Yoz tuni...”, “Tun gurkirab...”, “Bog'larda...”, “Ichar quyosh...”, “Yashil sochli...” va hokazo.

Uchinchi faslning debochasi “Odamdaraxt” deb nomlanuvchi she'rdir:

*O'sayotgan
kuchli daraxtman,
shoxlarida pishar so'zlarim,
O'ychan kuzak kelguvchi yo'lga
ikki tog'day boqar ko'zlarim.*

Mana, biz kutgan va umuman, masala mohiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqqovchi natija: shoxlarida so'zlari pishayotgan shoir misoli kuchli daraxtdek kuzakni kutib turibdi. Demakki, u umrining navbatdagi bosqichiga – uchinchi faslga – o'ychan kuzakka qadam qo'yyapti.

To'rtinchi fasl – qish. Inson umrining so'ng pallasi. Demak, qaysidir ma'noda sarhisob vaqti, qaysidir ma'noda pushaymonlik, afsus-nadomat zamon.

*Kuylolmadim
yaproqlar kabi,
quruq shoxday titrar ovozim –
so'lib qoldi bahorim tag'in,
suvga cho'kdi yana bir yozim.*

Shoir “bahorim so'ldi”, “yozim esa suvga cho'kdi” deyish bilan avvalgi fasllar – umrning “G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob” va “Badoye' ul-vasat” pallalari kechib, endi oxirgi bosqich – “Favoyid ul-kibar” tashrif buyurayotganidan alam bilan xabar bermayaptimi?

*Qorlar yog'di,
og'ridi jonim,
uxlayotgan bog'lar poyida.
Kuylolmasdim, undan yomoni*

yashil edim qantar oyida...

Biroq yana shu narsani e'tibordan qochirmasligimiz zarurki, Shavkat Rahmon garchi to'rtinchi fasl – inson umrining oxirgi pallasida haqida gapirayotgan bo'lsa-da, o'zi yosh edi. Ko'rinadiki, shoir shunday bir hassos, ayni chog'da sirli qalb egasiki, u gohi yosh bo'la turib keksa holiga tushadi, keksa bo'lib dunyoga nazar tashlaydi va hokazo. Bu esa tabiatni insondan, insonni esa tabiatdan ajratib bo'lmasligining shoirona dalilidir" [58].

Shavkat Rahmon ijodida **ishq** mavzusi ham yetakchilik qiladi. Shoir bu serg'alva, foniy dunyoda ISHQni yagona tayanch deb biladi. Undan boshqa narsalarning hammasi bekor:

Faqat ishq...

Faqat ishq...

Boshqasi sarob,

boshqasi shamolning oniy suroni...

Ishq orqali anglangan dunyoni komilliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyoning o'zi ham mukammal uyg'unlikdan tashkil topgan. Inson ham uning bir bo'lagi sifatida kamolotga yetishmog'i lozim. Axir odamzodning o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqishi, intilishi hech qachon tinch qo'ymagan. O'zni anglash esa bir umr davom etadigan uzluksiz jarayon. Shuning uchun ham shoir ishq tushunchasiga o'xshatishlar izlashdan erinmaydi, uning qiyosini tabiatdan axtaradi. Muhabbat esa ba'zida "nafis chechak"ka, ba'zan "bir go'zal qushcha" yoki "chiroyli kapalak"ka do'nadi. Biroq shoirning ishqning aslida nima ekanligiga emas, unga yetishmoqdan ko'ra, "nafasing chiqarmay bir umr" kuzatib turmoq, unga jim termulmoq kerakligiga iqrar bo'ladi. Aytish joizki, muhabbat mavzusi Shavkat Rahmon ruhiyatini ochib beruvchi muhim mavzudir.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riyatining mavzu va muammo ko'lamida juda keng. Eng e'tiborlisi, shoir qaysi mavzuda so'z aytmasin, shunchaki aytmaydi, tuyg'ularini yondirib, ana shu tizginsiz olov taftida o'zi ham yonib yozgan.

1.2. Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari

Mazkur ishning dastlabki qismlarida aytib o'tilganidek, Shavkat Rahmon she'riyati degan nom paydo bo'ldiki, uning alohida xususiyatlari e'tirof etilib, adabiyotshunoslik vakillari, qolaversa, adabiyot ixlosmandlari tomonidan tahlil qilinib kelinmoqda. Bu orqali shoir she'rlariga xos xususiyatlari yanada oydinlashib, shoirning turkiy tilning boy leksikasi, badiiy tasvir vositalaridan, badiiy detal va obrazlardan foydalanish mahorati, tasvir yaratish uslubi, shakliy izlanishlarida o'z ifodasini topmoqda.

Shoirning bor-yo'g'i 23 yoshida yozgan she'riga e'tibor qiling:

Sahar turdim, quyoshni kutdim,

shudringlarda chaydim yuzimni.

Buloqlarga labimni tutdim

va borliqda ko'rdim o'zimni...

Ko'zlarimdan toshdi shuurim,

to'lib ketdi bag'rimga navo.

Mangulikday tuyuldi umrim,

mangulikday tuyuldi dunyo. (1973)

Sahar turib, tabiatning go'zal parchasi bilan yuzma-yuz kelgan yosh shoir o'zini – insonni borliqning uzviy qismi o'laroq his etadi. Shunda umr ham, dunyo ham mangulikday tuyuladi. Endi quyidagilarga e'tibor bering, balki ushbu mulohazalar kimdadir erish kayfiyat uyg'otar, qat'i nazar, aytish joizki, o'zni borliqda, uning ajralmas bir parchasi o'laroq his qilish darajasiga ko'tarilish uchun inson juda uzoq va o'ta mashaqqatli yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Aytaylik, tasavvufda muayyan bosqichlardan o'tgan solikkina o'z intilishlarining natijasi o'laroq ana shu hisni topishi mumkin. Biz esa yuqorida 23 yoshli, buning ustiga hech qanday tasavvufiy tayyorgarligi bo'lmagan shoirda o'zni olamning parchasi o'laroq tuyish ne'mati bor, dedik. Gap shundaki, dunyoni anglash va idrok etishning ikki xili bo'lib, biri aqliy – ratsional, ikkinchisi hissiy – irratsional. Dunyoni ratsional anglash insondan, avvalo, fursat va mehnat talab qiladi, irratsional qabul qilish esa asosan kishining qobiliyati, ruhiy holati, hissiyot boyligi

bilan bog‘liq ravishda ro‘yobga chiqadi. Chinakam shoirlar o‘z tabiatlariga ko‘ra dunyoni hissiy qabul qiladigan insonlardir. Binobarin, ular yoshlaridan qat’iy nazar o‘z asarlarida olam va odamga taalluqli jahonshumul kashfiyotlar yaratishga qodir zotlar hisoblanadi. Shu ma’noda yosh Shavkat Rahmonning yuqoridagi she’ri ham olamni hissiy idrok etishning go‘zal namunasi, o‘ziga xos mo‘jaz kashfiyotdir.

Shavkat Rahmon zo‘raki o‘xshatish va qofiyabozlikdan butunlay holi, sodda va suyumli she’rlar yarata olgan. U hayolida jo‘shib kelayotgan tasvirlarga erkinlik berishga intiladi va buning asnosida qofiya ham, mazmun ham bir-birini rad etmay, bitta butunlik hosil qiladilar:

*Gulga aylan, yomg‘irga aylan,
sayhonlarga quyil ziyoday.
Qayta tug‘il, yorug‘ yuz bilan
vodiylarni kezgin piyoda... (-B.37).*

Shoir she’rlarida latiflikdan ko‘ra, kuchli shijoat, qat’iyat sezilib turadi va u o‘zining bunday keskin qiyofasini she’rxonga ham yuqtiradi:.

*Yurtimni kezaman,
endi har narsa –
egilgan narsalar tegar g‘ashimga.*

Dildagi iqrori, g‘azabini bunday yo‘sinda kuylash Sh. Rahmonga xos alohida xususiyatdir.

*“Zulfiqor ruh kerak,
kerak chin yog‘du,
chin ishq yolqinlari bag‘rimga to‘lsin,
jismimni toblasin faqat chin og‘riq.
Chechaklar qop-qora bo‘lsa-da, bo‘lsin...*

Chin so‘z, chin tuyg‘u, chin amallarga doimiy intiklik chin shoirlik belgilaridandir. Yuqoridagi misralar Shavkat Rahmonni boshqa minglab dardchil shoirlarga yaqin kiladi. Shu bilan birga, ayni shu misralar Shavkat Rahmon degan badiiy fenomenning boshqalardan farq qiladigan jihatlarini ham namoyon etadi: shoir «zulfiqor ruh» istaydi. Unga shunchaki qoniqmaslik, shunchaki norozilik,

ruhning shunchaki injiqligi xos emas. Shu bois hech kim aytolmaydigan yo'sinda: **“Bormi er qizlar?”** - deya savol qo'yadi. Odam er bo'lgandagina yer bo'lmasligi shoirning barcha asarlari zamiriga singdirilgan baland tuyg'ulardan biridir.

Shavkat Rahmon she'riyati tashki effektlarga unchalar boy emas. E'tibor qilinsa, shoir she'rlarida o'zbek nazmi uchun odatiy bo'lgan to'q qofiya juda kam uchraydi. Bu shunchaki tasodif emas. Shoir musiqiy mutanosiblikdan, kishi tuyg'ularini allalab chalg'itadigan nazmiy ohanglardan chekinadi. Kishi yuragiga bexato yetib boradigan, keskir qilichday tekkan joyida iz qoldiradigan zalvorli va qirrador tuyg'ularni o'shanga monand yo'sinda ifoda etadi. She'r to'q qofiyasiz bo'lsa, kishini allalovchi musiqiylik unchalar kuchli bo'lmaydi. She'riy so'z zalvori misralardagi umumiy ohang og'ushida yo'qolib ketmaydi va o'quvchi uni alohida idrok etish imkoniga ega bo'ladi. Sh. Rahmon bitganlarida tovushlarni o'ynatib, hissiyotining nozik qirralarini titkilab so'zdan olov chiqarishga emas, balki o'z-o'zidan gurkirab, olovlanib turgan ruhning haroratini, porillab yonayotgan tuyg'ularning alangasini ifodalashga yaraydigan so'zlarni qidiradi. Shoir hayoti mobaynida yonib yashadi va bundan malollanmadi, aksincha: **«Yonmoqlik munchalar yoqimli!»** - deya huzurlandi.

Chinakam shoir hamisha yo'l kishisi. Faqat bu yo'l jug'rofiy emas, balki ruhiy manzillardan o'tadi. U gunohlarga botgan zamindan orzudagi yurt - ezgulik tantana qilgan afsonaviy maskan sari o'tlanadi. Bu yo'lning mashaqqati ko'p, ozori cheksiz, farog'at esa faqat mo'ljalda. Lekin uyg'oq qalb jozibador maskan - ezgulik sari chorlayveradi. Shoir bu yo'lga yurmoqchi bo'lgan kishi qaltis lahzalarda pand berishi mumkin bo'lgan eng buyuk dushmani – xiyonatni o'ldirishi lozim deb biladi. Chunki xoinlik, xiyonat, qo'rqqoqlik kabi illatlar bilan kurash yo'lga kirib bo'lmaydi:

*Yo'ldir bu,
nafsning botqog'i emas,
qilichning damiday chaqnagan yo'ldir.
Bu yo'lga yuzingni burishdan avval,
o'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir.*

Shavkat Rahmon: ruhi keskir shoir, shu sabab so‘zi, obrazlari, tashbehlari keskir va qontalash. Uning so‘rashishga uzatilgan qo‘li ham o‘rni kelsa, «**...tig‘day yaltirab ketish**»ga qodir. U: «**...tilim qonar keskir so‘zlardan**», - deb aytishga mahkum ijodkorlardan. Uning tig‘li so‘zlaridan nafaqat tili, balki dili, ruhiy olami tilka-pora bo‘lardi. So‘zki shuncha og‘riqli ekan, bu so‘zlarni yuzaga keltirgan tuyg‘ular qanchalar azobli bo‘lsa! Bularni tuymoq va cho‘chimay, hech kimni ayamay aytmq uchun qanchalar jasorat kerak bo‘lsa! Shoirning: «**...bilmoqchi bo‘lsangiz agar shoirlik jasorat so‘zining tarjimasidir**», - degan so‘zlarida zarra qadar chiranish, zo‘riqish yo‘q. Shoir dunyoni tozalamoqchi, uni takomillashtirmoqchi bo‘ladi. Asli har qanday chin shoir shu niyatda qalam suradi. Ana shunday ulkan va vujudga sig‘mas tuyg‘uga egalikkina odamni ilohiy so‘zga oshno etadi:

Qalbi bezovta, ruhi uyg‘oq shoir dunyoni o‘ziniki biladi. U – dunyoga ham xo‘ja, ham xizmatkor. Shu tufayli shoirning yuqoridagiday da‘vatlari erish tuyulmaydi. Chunki ochun – uning o‘z mulki. U – dunyoning chin egasi. Egasi bo‘lgani uchun ham uning tozaligi haqida boshqalardan ko‘ra ko‘proq kayg‘urishga haqli” [10, 117].

Shoirning har bir so‘zga e‘tibor va sinchkovlik bilan yondoshganini istagan she‘rini mutolaa qilish orqali ham anglashingiz mumkin. Qolaversa, “u shunday so‘zga, she‘rga mas‘uliyat bilan qarardiki, hatto «tili va dili» boshqa kimsalarni o‘sha zahoti – tanqid ham qilardi. Har bir ishga, ijodga xolislik nazaridan baho berardi va qarardi. Uning she‘riyati ham shaxsiyatiga o‘xshab o‘ta jasoratli, haroratli edi. So‘zni sevardi. Chin so‘zlarning quli edi. Bir umr – haqiqat uchun kurashib yashadi. «*Men jangchi emasdim, men shoir edim. Dilimni og‘ritdi besamar janglar*», deydi u. Ya‘ni u yashagan davr Shavkat Rahmon uchun jang maydoni, kurash maydoni bo‘lgan she‘riyat edi. She‘riyatida kurashish bilan cheklanmadi, mardona, dadil qadamlar bilan xalqning orasiga kirib ham bordi. Bu kamdan-kam shoirlarda uchraydigan xislatdir.

Adabiyotdagi shaxs masalasi haqida gap ketganida avvalo, shuni aytish joizki, ulkan jasorat egalari, chin iste‘dodlilargina katta adabiyot yarata oladi.

O'shalarining yozganlari adabiyot bo'lib qoladi. Barcha zamonlarda ham shunday bo'lib kelgan. Bular ertaga ham, indinga ham davom etadigan hodisadir. Demak, Shavkat Rahmon shaxs va ijodkor sifatida ham «dili, tili» bir bo'lgan insondir. Achchiq gapirgan. Chaqib gapirgan. U o'zbek she'riyatining istiqbolini, nainki chin adabiyotni, balki millat erki va ozodligi, kelajagi, farovon turmushi xususida jiddiy bosh qotirgan, xalqni shunga da'vat etib yashagan, chaqirib yashagan. Chin iste'dodlining hayot shiori ham shunday bo'lishi shart! Bo'lmasa ikki tomonga ham jabr qilgan bo'ladi. Birinchisi – adabiyotga, ikkinchisi – o'ziga!” [77].

Shavkat Rahmonni hech ikkilanmay jasoratli shoir, deb atashga haqlimiz. Jasorat esa kamdan-kam ijodkorlarga nasib etadigan ruhiy borliqdir. U o'zidan, o'zligidan kechib, «ba'zi bir ijodkorlarga o'xshab» so'zni, she'riyatni, adabiyotni quruq yolg'on va o'tkinchi havas bilan bulg'amaydi. Buni gunoh deb biladi. Shularga o'z vaqtida amal qilib o'rgangan va boshqalarni ham shunga da'vat etib yashagan inson – shoir qanday baxtli? Unga na bir unvonu na bir zebu zar kerak? Bir chimdim mehr kifoya. Chinakam adabiyot – chin so'zlarning bag'rida yaratiladi. Boshqacha bo'lishi aslo mumkin emas. Shavkat Rahmon ana shunday har qanday savolingizga javob bo'lgulik tuyg'ulari, sezimlari yirik shoir edi.

Shavkat Rahmon XX asr o'zbek she'riyatining xassos shoirlaridan biri bo'lishi barobarida ulkan tarjimon ham ekanligi e'tiborga molikdir. U ispan she'riyati vakillaridan Xuan Ramon Ximenes, Rafael Alberti, Federiko Garsia Lorka kabi shoirlar ijodidan namunalarni o'zbekchaga mohirona o'g'irgan. Ayniqsa, shoirning Garsia Lorka she'riyatidan tarjimalari ham salmoq jihatidan, ham san'atkorlik mahorati nuqtai nazaridan yuqori baholangani uning ijod oldidagi san'at darajasiga ko'tarilgan mehnatining mevasidir. Shavkat Rahmonning ispanchadan o'giriklari ilmiy bahosini berish hozircha kelajakning ishi bo'lib turibdi. Lekin shuni tan olish zarurki, Garsia Lorka boshqa millat va boshqa dunyoning shoiri, demakki, o'zbek kitobxoni uchun boshqacha shoir bo'lishiga qaramay, Shavkat Rahmon tarjimalarida u bizga yaqin keladi, judayam tanish tuyuladi:

Aytilmagan

bir qo‘shiq

lablarimda uxlaydi hali.

Aytilmagan

bir qo‘shiq.

Shavkat Rahmon she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlarining to‘la namoyon bo‘lishida Lorka she‘riyatining alohida o‘rni borligini alohida ta’kidlash kerak.

Ma’lumki, adabiyotning qismati ijodkorning qalami qudratiga, salohiyatiga, ong-u shuur darajasiga, qalbi kengligi va albatta, vijdoniga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, “shoirlik – qismat” ekanligini erta anglab ulgurgan Shavkat Rahmon uchun she‘r umrining, tiriklikning ma’no-mazmuniga aylangan edi. 80-yillardan she‘riyat ahliga tanish bu shoirning she‘rlari boshdanoq shaxsiy dardlar ifodasidan ancha baland edi. Uning dard-u armonlari, iztiroblari xalqning dardi, millatning dardi bilan, jamiyatning muammolari bilan chambarchas bog‘lanib ketgandi. Shuning uchun shoirning lirik-falsafiy, kuchli ijtimoiy ruhdagi she‘rlaridagi o‘ziga xos jihatlar va ularning salmog‘i mutolaa jarayonida aniqlashib boraveradi.

Mazkur bobning xulosasi sifatida aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she‘riyati shunchaki shakllanib qolmagan, aksincha, ilohiy iste’dod, kuchli tafakkur va katta mehnat orqali yuzaga chiqqan, adabiyot maydonida tanilgan.

Shoir ijodining mavzu va muammo doirasi kengligi hamda har bir mavzuga sinchkovlik bilan yondashish borasida ham o‘ziga xos ekanligi ta’kidlab o‘tildi. Vatan, istiqlol, tabiat, muhabbat kabi o‘nlab mavzularda yozilgan ijod namunalari shoirning chinakam kashfiyotlaridir.

Sh.Rahmon she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish davomida shoirning fe’li va sajiyasi she‘rlarida aks etganini, shoir aslo aldab yozolmasligi, ya’ni soxta satrlardan qochishini, ayniqsa, she‘riyatining alohida obrazlar ketma-ketligiga ega ekanligini, tog‘, tosh, daraxt singari detallarni esa allaqachon o‘ziniki qilib olganini anglash mumkin. Qolaversa, Shavkat Rahmon turkiy xalqlarga xos latif, biroq o‘z o‘rnida shiddatli yozishi, turkiy til imkoniyatlaridan unumli foydalanishi haqida ham mazkur bob ma’lumot beradi.

Umuman olganda, birinchi bob o‘z mazmuniga ko‘ra, ikkinchi – muhim bobning yoritilishi uchun zina vazifasini o‘taydi. Chunki Shavkat Rahmon she’riyati haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmay turib, uning badiiy kompozitsiyasi, xususan, unda qo‘llangan badiiy detallar haqida ham mulohaza yuritib bo‘lmaydi. Shu bois keyingi bobda dastlabki bobdan olingan xulosalarga ham tayaniladi.

II BOB

Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan leksemalarning semantik xususiyatlari

Leksikologiya (ot. grek. lexikos - so'zga oid va logos - ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Leksikologiyani o'rganish manbai so'z hisoblansa, o'rganish predmeti uning quyidagi jihatlar:

a) lisonning asosiy lug'aviy birligi sifatida leksema muammosi, leksik birlik tiplari;

b) til lug'at tarkibi strukturalari;

c) lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti;

d) leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o'zaro munosabati [20, 83].

Leksikologiyada bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik hodisasi, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, qo'llanish darajasiga ko'ra umumiy iste'mol va chegaralangan leksika kabilar o'rganiladi.

Leksikologiya tilning so'z boyligi, ma'nosi va ma'no taraqqiyoti kabi masalalarni o'rganadi [5, 16].

Biz leksikologiyani bilmasdan turib, boshqa bo'limlarini aslo bila olmaymiz [14, 39].

Shavkat Rahmon ijodi adabiy jihatdan qanchalik boy bo'lsa, turli til vositalariga boyligi jihatidan ham ajralib turadi, ayniqsa uning birgina so'zni qo'llab ham ekspressivlik, ham o'ynoqi qofiyani ta'minlashi diqqatga sazovordir .

Shavkat Rahmon ijodida uchraydigan ko'p ma'noli so'zlar va ularning qo'llanish holatlari, sinonimlarning ma'no qirralari, o'ziga xos ko'rinishlari, antonimlarning qo'llanishi va uslubiy xususiyatlari, omonimlarning shoir ijodidagi xususiyati, o'z qatlam va o'zlashgan qatlamlarning qo'llanishini ko'rib o'tamiz.

2.1. Ko‘p ma’noli so‘zlar

Dastlab ko‘p ma’noli so‘zlar haqida fikr yuritib, shoir ijodida uchraydigan ko‘p ma’noli so‘zlarni tahlil qilamiz.

Tilshunoslikda ko‘p ma’noli so‘zlar masalasiga, xususan, leksikologiya va semasiologiya fanlariga alohida e’tibor qaratilgan. So‘zlarda ko‘chma ma’noning paydo bo‘lishi, ya’ni, polisemiya holatining yuzaga kelishi va ularni qo‘llash jarayonida omonimlarning ajralib chiqishiga ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganishdagi asosiy muammolar sifatida yondashilmoqda. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga qaraganda leksik tizimdagi otlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Tuzulishiga ko‘ra: sodda, murakkab;
- Shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra: ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli;
Qo‘llanishiga ko‘ra: faol va nafaol;
- Vazifaviy – uslubiy xususiyatiga ko‘ra: kitobiy, rasmiy, so‘zlashuv;
- Lug‘at tarkibidagi qatlamiga ko‘ra : o‘z va o‘zlashgan, chegaralangan va chegaralanmagan qatlamlar;
- Emotsional – ekspressiv bo‘yoqdor jihatiga ko‘ra: emotsional – ekspressiv bo‘yoqdor, emotsional – ekspressiv bo‘yoqsiz so‘zlar;
- So‘zlarning ifodalaydigan umumiy kategorial ma’nosiga ko‘ra [40, 46-47].

Ushbu tasnifdan ham ko‘rinib turibdiki, leksemalar turli tomonlama o‘rganiladi. Biz ushbu magistrlik ishida Shavkat Rahmon she’riyatidagi ushbu xususiyatlarni ochib berishga harakat qilamiz. Shoirning badiiy mahoratida ko‘p ma’noli leksemalarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rib chiqamiz. Dastlab ko‘p ma’noli so‘zlar haqida fikr yuritsak.

Leksik polisemiya (yunoncha: poli- “ko‘p” + semia – “belgi”) leksemalarning bir necha ma’noga ega bo‘lishi [8, 155].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi leksemalarning deyarli yarmi bir ma’noli, yangi yaratilgan leksema boshlang‘ich ishlatilish davrida bir ma’noli bo‘ladi, biror voqelikning nomi sifatida yuzaga kelib, keyinchalik uning mazmun jihatidan turli-

tuman o'zgarishlar yuz beradi, shunday o'zgarishlarning ma'lum bir qismi natijasida bir ma'noli leksemaga aylanadi.

Leksemaning ma'nolari asli kontekstda shakllanadi va namoyon bo'ladi: kontekst qanchalik rang-barang bo'lsa, bu leksemalarning ma'nolari shunchalik ko'p bo'ladi. Bunda shu leksema bilan bog'lanib keladigan leksemalarning miqdori emas, balki turli- tuman semantik yo'nalishdagi leksemalar bo'lishi mumkin.

Leksik ko'pma'nolilik – ko'p qirrali, murakkab hodisa . Buning ustiga deyarli har bir leksemaning leksik ma'no taraqqiyoti alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qiladi. Shu sababli leksemalarning leksik ma'nolarni aniqlash va tartiblash juda qiyin. Adabiyotlarda leksemalarning ko'p ma'noliligi haqida berilgan fikrlar o'ta mavhum bo'lib, leksik ma'no taraqqiyoti haqida umumiy tasavvur hosil etishga xizmat qiladi.¹

Jamiyat taraqqiyot etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqarorlashib boradi va hosil nutqiy ma'no lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi.

Leksema ko'p ma'noli bo'lsa, har bir sememada boshqa- boshqa tushuncha aks etgan, sememalarda farqli semalar mavjud har bir semaning nutqiy voqelanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo'ladi.

Har qanday leksema, xoh u bir sememali, xoh ko'p ma'noli sememali bo'lsin, nutqda bir ma'noli bo'ladi. So'z esa hamisha bir ma'noli [20, 83].

Polisemantik so'larning ma'nosi faqat matnda bilinadi.

Polisemiya ikki asosiy yo'l bilan hosil bo'ladi:

1. So'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida;

2. Ko'p ma'moli so'zdan yoki ko'p ma'noli qo'shimcha vositasida yasalgan so'zlardan.

Bulardan birinchisi asosiy yo‘l bo‘lib hisoblanadi. Polisemantik so‘zlar qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu so‘zlar ma’nosi o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat ularni omonimlardan farqlaydi. Polisemantik so‘zlar o‘rtasidagi aloqadorlik uzilsa, omonimlik vujudga keladi. Tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, paydo bo‘layotgan yangi narsalar o‘z atmasi bo‘lishini talab etadi. Buning uchun tilda yangi narsalarning nomi sifatida yangi so‘zlar paydo bo‘ladi yoki tildagi bor bo‘lgan so‘z yangi hodisaning atamasiga aylanadi [33, 67-68].

Ko‘p ma’noli so‘zlar ba’zi ma’nolardagina fonovariantiga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim ko‘p ma’noli so‘zlar o‘zining fonovariantlari bilan o‘z (asl) ma’nosidagina teng qo‘llanishi mumkin [45, 44].

Leksik ma’no odatda bir narsa-buyum, harakatning nomini boshqa bir narsa-buyum, belgi, harakatga ko‘chirish yo‘li bilan rivojlanadi. Bunday ko‘chi-rishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar bel-gilaydi.

Ma’no ko‘chirish yo‘llari:

- Metafora.
- Metonimiya.
- Sinekdoxa.
- Vazifadoshlik.
- Kinoya.

Metafora poeziyada, albatta, yangilik emas. Lekin u har bir iste’dodli shoirda o‘ziga xos jilvalarda namoyon bo‘ladi. Shavkat Rahmon metofoalarining o‘ziga xosligi ularning qamrovida va mavzuga mayin, tabiiy romantik ohangdoshligida. Unda ayrim obrazlargina emas, balki butun she’r metofoara harakatiga quriladi, metafora poetik tilga, obraz mantiqiga, she’riy tafakkur boyligiga aylanadi.

*Odamlar **qaynagan** katta shaharda*

Odamlarni sog‘inib yursang (S.243-bet)

Ushbu misrada **qaynagan** so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Bosh ma’noda *qaynamoq* so‘zi ”kuchli issiqdan ko‘pirib, bug‘lanib vaqirlab turmoq” ma’nosini bildiradi. *Suv qaynadi. Qazonda sho‘rvo qaynamoqda* birikuvlarida o‘z ma’nosida qo‘llangan. *Qaynamoq* so‘zining “*otilib chiqmoq; pishqirmoq, ko‘pirib toshmoq;*

hayajonlanmoq, qizg'in yoki bezovta harakatga kelmoq; jo'sh urmoq, qizib avjga chiqmoq" kabi ko'chma ma'nosi bosh ma'nodan o'sib chiqqan. Bu manodan yana boshqa ko'chma ma'no shu harakatga nisbiy o'xshashlik asosida "g'ujgon o'ynamoq, ko'p miqdorda tiqilib ketmoq" ma'nosi o'sib chiqqan. Odamlar qaynagani birikuvida ham qaynagan so'zi shu ko'chma ma'noda qo'llangan.

Metaforaning yuzaga kelishida obyektiv va subyektiv borliqdagi narsalar orasida o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lishi mutunosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rniga qo'llanishi muhim ahamiyatga egadir. Metafora obyektiv va subyektiv borliqdagi o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lmish narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanishidir [62].

Kun tovlanib
aylanar ekan,
ranglari-la bog'lab ko'zimni,
g'o'zalarning **qulog'in** tergan
qizlar apo ko'rdim o'zimni (261-bet)

Quloq lesimasi bosh ma'noda "eshitish organi va uning tashqi qismi" (71, II.616-bet) ma'nosini ifodalaydi. Odamning qulog'i, quloq pardasi birikuvida o'z ma'nosida qo'llangan. Quloq so'zi "bazi narsalarning ushlash, ilib qo'yish yoki burab ishga tushirish, sozlash uchun xizmat qiladigan qismi" ma'nosida ham ishlatiladi. **G'o'zalarning qulog'i** birikmasi so'zlashuv tiliga xos bo'lib, "o'simlikning barg yoki nihol yozadigan yeri; dastlabki niholcha, bargcha" ma'nosida qo'llanilgan.

Endi qo'nim topmay bog'chalarida
mo'min musichalar,
ko'rkam kaplarlar –
ochiq derazamning tokchalarida
majlis qiladigan bo'ldi haftalab (S.262-bet)

Mo'min musichalar birikmasidagi **mo'min** so'zining ma'nosi metafora usuli bilan ko'chgan. **Mo'min** so'zining bosh "ollohning borligiga iqrar bo'lgan, imon keltirgan kishi; musulmon" (71, I.490-bet) ma'nosidan "yuvosh, beozor" ma'nosi

o'sib chiqqan. Bu o'rinda beozor jonvorlar bo'lmish musichaga nisbatan "mo'min"lik xususiyati ko'chirilgan.

Yuqorida insonga xos xususiyatlarni narsa va hodisalarga ko'chirilgan o'rinlarni ko'rdik, quyida jonsiz predmetlarni inson a'zolariga qiyoslagan o'rinlarini kuzatamiz:

Erku muhabbatning muxtor elchisi –

yotmasman tuproqqa do'nib, tinchlanib, jasadim tirikdir yorug' dunyoda,
oyning sinig'iday chaqnar **sinchlarim** (S.247-bet)

Sinch leksimasi binokorlikka oid termin "devorning taglik yog'och bilan sarrovi o'rtasiga qadalgan yog'ochlar" (71, II.53-bet). Ushbu she'rning "oyning sinig'iday chaqnar sinchlarim" misrasi betakror metafora asosida yuzaga kelgan bo'lib, inson tanasining tayanch a'zolari "sinch"ga qiyoslangan. Shoir ijodida metaforaning turli xil ko'rinishlari uchraydi:

G'ildiraklar izlarin tun

yashirgan choq qayta-qayta

foni dunyo g'am-g'ussasin

to'qib kuylar bolakaylar (S.117-bet)

Ushbu misrada **to'qiydi** so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Bosh ma'noda **to'qimoq** so'zi "gazmol yoki buyum yasamoq, tayyorlamoq" (71, II.257-bet) ma'nosini bildiradi. *Chit to'qimoq, savat to'qimoq* birikuvlarida o'z ma'nosida qo'llangan. **To'qimoq** so'zining "*ijod qilmoq ; yozmoq; bastalamoq*" kabi ko'chma ma'nosi bosh ma'nodan o'sib chiqqan. Bu ma'nodan yana boshqa ko'chma ma'no shu harakatga nisbiy o'xshashlik asosida "*yo'q yerdan uydrib chiqarmoq, uydirmoq*" ma'nosi o'sib chiqqan. **To'qib kuylar** birikuvida ham **to'qiydi** so'zi shu ko'chma ma'noda qo'llangan. Bu misrada ma'no ko'chishning metafora usulidan o'rinli foydalanilgan.

Metonimiya (yunoncha: metonimia-qayta nomlash) yo'li bilan ma'no ko'chirilishi. Bunday ko'chirilish narsa-buyum yoki hodisaning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi [20,110].

Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison va nutqqa dahldor hodisa. Boshqacha aytganda, metonimik hosila ma'no sof nutqiy yoki lisoniy bo'lishi mumkin.

Notiqlar esdalik aytar avlodga:

bir payt, azizlarim,

Masko'p orqali

Borib kelar edik qo'shni **afg'onga** (S. 321-bet)

Metonimiyaning yana bir turi narsa-buyumning nomi bilan shu narsa-buyumning hosila ma'nosi ataladi.

Afg'on leksemasi I. “ *afg'onistonning tub aholisini tashkil etuvchi xalq (millat) ning nomi* ” (72, II. 64-bet) ma'nosini anglatadi.

Afg'on so'zi maskur misrada Afg'oniston respublikasi ma'nosida qo'llangan.

Masko'p leksemasi orqali esa butun bir hokimiyatni nazarda tutgan, bu o'rinda shoir varvarizmga asoslangan ma'no ko'chishidan foydalanib, betakror misralar yaratgan.

Qo'rqqoq **oylab**, yillab,

hatto bir umr

ko'z-kozlab ming turlik suvratlarini,

eng nozik – eng ojiz joyingni ko'zlar,

ojiz joying esa kuraklaringdir (S.249-bet)

Oy “*quyosh nur olib yog'du sochuvchi samoning samoviy jismi*” (72, III. 98-bet) Ushbu o'rinda metonimiyaning yana bir turi : narsa-buyumga asoslangan o'lchov birligi bo'lib xizmat qilgan [19,58].

Mazkur banddagi **oy** so'zi “*astronomik yilning o'n ikkidan biriga – oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig'i* ” (71, I. 526-bet) ma'nosidagi ko'chma (metonimik) ma'noda kelmoqda .

Shavkat Rahmon she'rlarida ko'p ma'nolilik hodisasidan mahorat bilan foydalanib, ma'no ko'chishning barcha usullarini ustalik bilan qo'llab, she'rlarida o'ziga xos mazmundorlik, joziba va ta'sirchanlikni ta'minlagan.

2.2. Sinonim, antonim, omonim soʻzlarning qoʻllanishi

Shakli bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar omonim soʻzlardir. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud boʻlgan ayrim soʻzlarning shakllari tasodifan teng boʻlib qoladi: baqa-qurbaqa, baqa-suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;

2. Bir maʼnoli soʻz leksik maʼnoning koʻchishi oqibatida koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi, keyinroq bosh maʼno va hosila maʼno oʻrtasidagi bogʻlanish unitilib, bir soʻz negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo boʻladi: *kun*-quyosh; *kun*- sutka, kun chiqqandan yana kun chiqqungacha boʻlgan vaqt;

3. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan ayrim leksemalar oʻzbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng boʻlib qoladi: toy(fors-tojik)-katta toʻp qilib taxlab yoki bosib bogʻlangan mol va shu tarzidagi mol oʻlchovi;

4. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng boʻlgan soʻzlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: *surat*(arabcha)-rasm, *surat*(arabcha)-urf-odat;

5. Leksemalarning yasalihi ham baʼzan omonimlarni keltirib chiqaradi: qoʻnoq-tariq, qoʻnoq(qoʻn+oq)-mehmon kabi.

Shavkat Rahmon sheʼriyatida quyidagi omonimik birkliklar qoʻllangan:

Yosh qoning toʻlgʻonar tomirlaringda,
tilingda uygʻongan bulbul sayraydi. (S.221-bet)
Bir lahza oʻgrilib,
teranroq qarang,
qaysi bir koʻzlarda ogʻir **yosh** qoldi,
soʻligan gullarday ochiq yuraklar,
kaftlarga tiralib necha bosh qoldi? (S.235-bet)

Birinchi banddagi **yosh** soʻzi sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, “*qari emas, navqiron*” (71, I.264-bet) maʼnosini anglatadi.

Ikkinchi bandda qoʻllangan **yosh** soʻzi ot soʻz turkumiga taalluqli boʻlib, „*qattiq ogʻriq, qaygʻu yoki kuchli sevinch-shodlik natijasida yosh bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq shoʻr suyuqlik*” (71, II.264-bet) maʼnosini bildiradi.

Oq sukunat

portlar saharda,

kun nurida yonib, yaraqlab,

chopib kirar sovuq shaharga

yalangoyoq yashil daraxtlar. (S.10-bet)

Kun keldi,

ohlaring uchadigan kun,

yuzingni bosgancha yerning yuziga,

silkinib-silkinib yigʻlaydigan kun. (S.188-bet)

Birinchi banddagi **kun** soʻzi „*quyosh, oʻftob*“ (71, I.405-bet) maʼnosini anglatadi va bu soʻz ikkinchi banddagi **kun** „*vaqt, payt, kez, davr*“ (71, I.405-bet) maʼnosini bildiruvchi soʻz billan omonimlikni hosil qilgan.

Xaloyiq ishondi,

koʻzyoshdan iydi,

aybdor boltamas,

aybdor **kunda**.

Qasosin olmoqdan oʻzini tiydi

jallodlar niqobi yirtilgan **kunda**. (S.319-bet)

Misradagi birinchi **kunda** soʻzi ot soʻz turkumiga mansub boʻlib, „*kesilgan yoki singan daraxtning ildizi tomonidan qolgan ostki qismi; toʻnka*“ (71, I.405-bet) maʼnosini anglatib, ikkinchi **kunda** soʻzi esa ravish soʻz turkumiga taalluqli boʻlib, „*har kuni*“ (71, I.405-bet) maʼnosini bildirib, shakldoshlik hodisasini yuzaga keltirgan.

Ispanlar goʻyoki bor gʻuborini

Sitib chiqarganday pok qonlaridan,

dunyo koʻz oldida

minglab razilga

o‘t qo‘yib yuborar maydonlarida. (S.208-bet)

Mazkur misrada **o‘t** so‘zi ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, „*yonish jarayoni; olov,otash; kuydirib nobud qiluvchi yonish jarayoni; yong‘in*“ (71, II.517-bet)ma’nosini anglatadi.

O‘tlar o‘smay qo‘ydi,
uniqdi quyosh,
suv chaqa boshladi oyoqlarini, (S.251-bet)

Ushbu banddagi **o‘t** so‘zi „*poyasi yog‘ochlanmaydigan, chorva mollari uchun asosiy yemish bo‘ladigan yashil o‘simlik*“ (71, II.517-bet) ma’nosini anglatadi.

Qonimni qonimga tanitib qo‘ydi
qorong‘u tunlarning
o‘t musallasi. (S.221-bet)

Misradagi **o‘t** so‘zi „*ichki alamli kechinma,ruhiy azob, qiynoq va uning tashqi ifodasi,aksi,belgisi*“ (71, II.517-bet) ma’nosini anglatadi. Bu uch so‘z boshqa-boshqa ma’no anglatuvchi shakldosh so‘zlardir.

1. Qirchillagan shabada keldi,
ko‘pirgancha shoshib,quvonib,
bahor, jismi ochilib,yashnab,
bosib ketdi atir **tumani**. (S.34-bet)
2. Mana, nogoh ovchilar
hayratdan lol qaraydi:
jannatday bir makonda
tuman qushlar sayraydi. (S.313-bet)

Birinchi misradagi **tuman** so‘zi „*atmosfera*ning quyi qatlamida yuzaga keladigan mayday suv yoki muz zarralari;*hid*“ (71, II.222-bet) ma’nosini anglatadi,ikkinchi banddagi **tuman** so‘zi „*nihoyatda ko‘p, sanog‘iga yetib bo‘lmaydigan,tumonat* ” (71, II.222-bet) ma’nosini bildiruvchi so‘z bilan omonimlikni hosil qilgan.

Ma'nosi boshqa-boshqa, tovush tomoni bir xil bo'lgan birdan ortiq morfema **omomorfema** deyiladi [69, 74].

1. **Unutganim** yo'qdir hali
o'kzorni, asov soyni,
2. Yodimdadir o'shal damlar,
Kulgularing edi **so'lim**,
3. Hali yiroq edi g'amlar,
Dunyoda yo'q edi **o'lim**. (S.11-bet)

Misralarda keltirilgan unutganim, so'lim, o'lim so'zlaridagi –im qo'shimchasi omomorfema bo'lib, *unutgan* + **im** = unutganim bu o'rinda sintaktik shakil yasovchi qo'shimcha, *so'l* + **im** = *so'lim* so'zida sifat yasovchi qo'shimcha, *o'l* + **im** = *o'lim* so'zida esa ot yasovchi qo'shimcha vazifasini bajarib kelgan.

Tilimizdagi ayrim so'zlar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatidan o'xshash yoki zidlashni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlariga bo'linadi.

Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munasabat deb yuritiladi [23, 70].

Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi.

Bir umumiy (birlashtiruvchi) ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar gruppasi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. So'zlarni sinonim qiladigan narsa ularning bir xil ma'noga egaligi ekan, ko'p ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bolishi mumkin. Boshqacha aytganda, ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonim qatorda bo'lishi mumkin [26, 114].

Sinonimlar odatda bir xil ma'noli so'zlar, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar, yaqin yoki bir ma'noli so'zlar, lekin uslubiy bo'yoqlari qo'llanish sathlari faqlanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, sinonimlar

chegarasi fanda unchalik aniq emas, cho‘chimoq-hayiqmoq-qo‘rqmoq qatorida harakat belgi darajasi turlicha atalmoqda [70, 262].

Sinonimlarning mohiyati to‘g‘ri tushunish uchun ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim:

1. Tushuncha va so‘z, ularning o‘zaro munosabati;
2. So‘z va uning ma’nolari, har bir so‘zning ma’no ottenkalari [33, 67-68].

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman, ularning ayrimlari quyidagilar:

1. Ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
2. Leksemalarning qo‘llanish davrida ko‘rsatuvchi sema: “eskirgan”, “yangi”, “o‘ta yangi”, “arxaik”.
3. Leksemalarning qo‘llanish doirasini ko‘rsatuvchi sema: “shevaga xos”, “so‘zlashuvga xos”, “kitobiy”, “ko‘tarinkilik” va boshqalar.

Shuning uchun ham an’anaviy sinonimlarni:

1. Bir atalmishni (denotatni, borliq-hodisani) turli munosabatlar bo‘yog‘i bilan atovchi so‘zlar guruhi;
2. Atalmishdagi belgini turli darajalarda ifodalovchi so‘zlar guruhi [20, 114].

Shavkat Rahmon she’rlarida sinonimlardan unumli va mahorat bilan foydalangan. Uning she’rlari badiiy jihatdan boyligi sabablari sinonimlarning turli ko‘rinishlaridan foydalangan. She’rlarining rang-barang, ta’sirchan bo‘lishi uchun shoir tildagi ma’nodosh so‘zlarga ko‘p murojaat qilgan:

To‘lin oy ochilgan **ko‘ksiga**


bulutdan **bag‘irdosh** topadi.

Shabada – sho‘x juvon **yurakni**

o‘ynarkan goh ochib, yopadi. (S.53-bet)

Mazkur satrdagi sinonimik qator so‘zlari ma’noni kuchaytirish hamda she’rdagi jozibadorlikni ta’minlash maqsadida qo‘llangan. Shavkat Rahmon sinonimlardan shunday o‘rinli foydalanganki, har bir sinonim o‘zining ma’no qirralari bilan farqlanib, ijodiga o‘ziga xos jilo, satrlarga maftunkorlik

bag'ishlaydi. Ushbu misrada ham so'zlarni shunday ustalik bilan qo'llaganki, satrda o'ynoqilik vujudga kelgan.



Sinonimik qatorning chegarasini belgilash uchun, avvalo shu sinonimik qatordagi bosh so'zni aniqlash lozim bo'ladi. Bu sinonimik qatordagi ko'ks so'zi bosh so'zdir. Bosh so'z sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni aniq ifodalaydigan so'z bo'ladi. **Ko'ks** "*biror narsaning o'rtasi, ichi, bag'ri; yurak, qalb*" (71, I.414-bet) degan ma'noni ifodalaydi. **Bag'ir** so'zi "*mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, himoya ramzi; panoh*" (71, I.89-bet) ma'nosini anglatadi. Nutqda qo'llanishiga ko'ra ko'ks leksemasi faol, bag'ir leksemasi esa passiv qo'llanadi. Shoir ko'ks so'zi hamda uning sinonimi bo'lmish bag'ir so'zini ma'noni kuchaytirish va badiiylilikni oshirish maqsadida qo'llagan, shuningdek har ikkala leksima ko'chma ma'noda yurak so'zini ifoda etadi. Ijodkor sinonim so'zlardan o'rinsiz takrorlarning oldini olish maqsadida foydalangan.

Telvakezik, sayoq shamoldan
g'azablanib, **ulkan, ulug'vor**
boshin chayqab qo'yar-da, uzoq
g'ijirlatar tishlarin chinor. (S.50-bet)

Uulkan, ulug'vor so'zlari mazkur bandda qo'llangan. So'zlarni sinonimik qatorga ajratishda ularning grammatik va leksik ma'nolariga tayaniladi. Chunonchi, sinonimik qatordagi so'zlarning grammatik ma'nolari bir xil bo'ladi va bir so'z turkumiga kiruvchi til birliklaridan tashkil topadi. Ushbu sinonim so'zlar sifat so'z turkumiga doir bo'lib, **ulkan, ulug'vor** so'zlari "*katta, buyuk, zo'r, azim, azamat, bahaybat, haybatli, yirik, gigant*" (70, 119-bet) so'zlari bilan sinonimik qatorni hosil qilgan, bu o'rinda katta so'zi bosh so'zdir. **Uulkan, ulug'**

soʻzlari hajm-oʻlchovi ancha katta boʻlgan narsalarga nisbatan qoʻllanadi. **Ulugʻ kam qoʻllanadi. Ulkan eskirgan.** (70, 120-bet) Shoir mazkur bandda ham sinonim soʻzlarni qoʻllab poetik maqsadini amalga oshirgan.

Goʻyoki londonlar,
parijlar yoʻqdir,
odamzod turganday bir yoqqa qarab.
Qaltis lahzalarda bir holni koʻrdim –
insonlar bir taraf,
dahshat bir taraf. (S.272-bet)

Shavkat Rahmon his-tuygʻularini satrga solar ekan, soʻzning barcha jihatlariga eʼtibor qaratadi: ohangdorligiga, anglatadigan maʼnosiga, qoʻllanish doirasiga . Shuning uchun ham Shavkat Rahmon sheʼrlari barchaning diliga birdek manzur boʻladi. Ushbu bandda qoʻllangan **odamzod va inson** maʼnodoshlari usluban va ohang jihatdan muvofiqdir.

Odamzod fors-tojikcha soʻz boʻlib, “*odam bolasi; kishi, bashar*” (71, I. 520-bet) maʼnolarini anglatadi. **Odamzod** soʻzining ishlatilish doirasi inson soʻziga qaraganda ancha keng boʻlib, sozlashuv uslubida faol qoʻllanadi. **Inson** soʻzi esa ijobiy koʻtarinkilik ottenkasiga ega. *Odamzod va inson* maʼnodosh soʻzlari sheʼrdagi taʼsirchanlik hamda ekspressivlikni taʼminlash maqsadida qoʻllangan.

Ibtidoiy, oʻtkir qoyalar...
Bu togʻlarning **osmoni** moviy,
bunda gullar farishtasimon,
bunda hatto toshlar **samoviy**. (S.59-bet)

Osmon,samo soʻzlari mazkur bandda qoʻllangan. Ushbu sinonim soʻzlar ot soʻz turkumiga doir boʻlib, **osmon** soʻzi bosh soʻzdir.

Osmon fors-tojikcha soʻz boʻlib, “*yer ustida gumbaz shaklida koʻrinib turuvchi havo qatlami*” (70, 159-bet) maʼnosini ifodalaydi. **Osmon** soʻzi keng qoʻllaniladi. **Samo**— arabcha soʻz boʻlib, soʻzlashuv tilida juda kam qoʻllanadi. Bu leksema kitobiy, poetik uslubga xos . Shoir barcha tillarning soʻz boyligidan

o‘rinli foydalangan. Mazkur badda ham sinonim so‘zlarni qo‘llab poetik maqsadini amalga oshirgan.

Shavkat Rahmon she‘riyati – juvonmardlik ruhi bilan sug‘orilgan. U millatning zabun holidan, sho‘raviylarning poshnasi ostida toptalgan Vataning pajmurda jismidan o‘rtanadi. Shoir bir she‘rida *mehmondo‘stlik* haqidagi mulohazalarini satrga solib o‘ziga xos, hech kimda uchramaydigan o‘xshatishlar orqali o‘zbek xalqining urf-odatlarini tasvirlaydi. Mazkur she‘rida *tamoil* va *odat* sinonim so‘zlarini qo‘llagan:

Uydagi tartiblar yoqmas biriga,

Yoqmas tarbiyasiz bolalar xulqi,

Yalinib – yolvorib siylaganingiz,

Tamoil, odatlar qo‘zg‘atar kulgu. (S.206-bet)

Odat 1. “*O‘rganish bo‘lib qolgan harakat, qiliq*“.

Odat 2. “*Ota – bobolardan qolib kelayotgan va kishilarga singib ketgan yoki yangidan singib borayotgan rasm – rasm, udum, tartib*“.

(71, I.521-bet) Yuqorida odat so‘zi ana shu 2- ma’nosida qo‘llangan.

Tamoil so‘zida “*amal qilinadigan tartib-qoida*” tushunchasi hamma vaqt aks etadi. Kitobiy tilga oid bo‘lib, kam qo‘llanadi. (70, 154-bet)

Yog‘iladi mayin ***sas, sado***,

Yog‘ar, yog‘ar shomurut qori,

Naqadar xush jodugar navo,

Ozod, qora sochlar ifori. (15-bet)

Mazkur satrda *sas* va *sado* so‘zlari ma’nodosh sifatida qo‘llangan.

Sado jonli va jonsiz narsalarning tovushini bildiradi, lekin tovush so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. (70, 152-bet)

Sas dialektal so‘z bo‘lib, badiiy adabiyotlarda, qyniqsa poeziyada kishi ovozi ma’nosida qo‘llanadi. (70, 152-bet)

Bunda ellar ***izzat-hurmatda***,

Ko‘zlari chaqchaymas yakkatillikdan,

Ko'ngilga yaqinroq bo'ldi g'urbatlar,
Hech kimsa o'lmaydi mustaqillikdan. (S.321-bet)

Ushbu bandeda *izzat, hurmat* so'zlari sinonimik qatorni tashkil etgan.

Hurmat *"kimsa yoki narsa qimmatini tushunib, uni qadrlash, ulug'lash, e'zozlash tuyg'usi"* .(71, II.712-bet) **Izzat** arab tilidan o'zlashgan so'z bolib, *"kimsaga ko'rsatilgan yoki kimsa sazovor bo'lgan hurmat; ehtirom"* (71, I.316-bet) ma'nosini anglatadi. *Izzatli* so'zi *hurmatli* so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. (70, 272-bet)

Shavkat Rahmon ijodini til xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, she'rlarida uchraydigan so'zning shakl va ma'no munosabatlari yetarlicha go'zal va betakror ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bunda sinonimlarning maftunkor namunalari va ularning qo'llanish o'rinlari, ma'nodosh so'zlarning turli ko'rinishlaridan ustalik bilan foydalanganligi e'tiborimizni tortadi. Iste'dodli ijodkorimiz she'rlari adabiy jihatdan mazmundor bo'libgina qolmay, balki uning asarlari til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va so'zga boyligi ko'zga tashlanadi.

*Til birliklarining o'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatishi asosida guruhlanishiga **antonimiya** deyiladi.* Antonim yunoncha so'z bo'lib, anti - zid, qarshi; onyma - ism degan ma'noni anglatadi.

Antonimiya ikki til birligi orasidagi munosabatga asoslanadi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatsan antonim bo'lib, ikkisi birlikda antonimik juftni hosil etadi. Avvalo, ikki xil antonimiyani ko'rsatish lozim:

1. Lug'aviy antonimiya – lug'aviy birliklarining o'zaro antonim bo'lishi: saxiy-baxil;

2. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi: o'rinli-o'rinsiz.

Lug'aviy antonimiya uch xil bo'ladi:

1. Leksik antonimiya - leksemalarning o'zaro antonim bo'lishi: ertalab-kechqurun;


2. Frazeologik antonimiya – frazemalarning o‘zaro antonim bo‘lishi: oq ko‘ngil-ichi qora;

3. Leksik- frazeologik antonimiya – leksema bilan frazemaning o‘zaro antonim bo‘lishi: xafa-boshi osmonda [22, 120].

Antonim juftlik – o‘zaro qarama-qarshi ma’noli ikki so‘z.

Enantiosemiya bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra zidlanishning ifodalanishi, chunonchi, ofat so‘zining ma’nosi “falokat, balo”dir, ammo u “Ulug‘ yo‘l” romanida bir epizodda shu ma’noga zid ravishda “go‘zal, maftunkor ” ma’nolarini anglatgan.

Ikki ma’no o‘rtasidagi oraliq tushuncha mantiqiy markaz va shu markazning ikki tomonidan o‘rin olgan tushunchalar o‘zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Ba’zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonim juftlik bo‘ladi:



Bunday hollarda o‘z ma’nosiga ko‘ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan so‘zlar o‘zaro antonim juftlik hosil qiladi [8, 170-176].

Antonimlar tub (oz-ko‘p), yasama (unumli-unumsiz) bo‘ladi. Badiiy asarlarda, xalq maqollarida antonimlar emotsional-ekspressiv uslubiy vositalar sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o‘tkirligi uchun xizmat qiladi [33, 73-74].

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a) kontrar qarama-qarshilik;
- b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqlarning ziddiyat, ya’ni qarama-qarshilikka o‘sib borishi natijasida birinchi a’zo bilan oxirgi a’zoning antonimlashuvi. Masalan, kichik – o‘rta – katta, yosh – o‘smir – o‘rta yosh – qari kabi. Bunda kichik va katta, yosh va qari lekse-

malari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi o'rta leksemasida kichik va katta leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarining kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bog'insiz bo'ladi: rost –yolg'on, arzon – qimmat, oson – qiyin. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q.

Antonimiyada uch xil belgi bor:

- 1) shakliy (fonetik strukturasi) jihatdan har xillar;
- 2) ma'no jihatdan har xillar;
- 3) ma'nodagi o'zaro zidlik [20, 114].

Ma'no jihatidan antonimlar o'zaro bog'lanishli bo'ladi: birini aytis bilan shuning zidi ko'z oldiga keladi, birining ma'nosi uning antonimiga ko'ra aniq gavdalanadi; go'yo antonimlar biri ikkinchisini turtib turgandek bo'ladi.

Kontekstual antonimiya – o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritishidir. Bunday holatlar ko'p hollarda she'riy misralarda uchraydi.

Shavkat Rahmon ijodidagi antonimlarning barcha turini ko'rib chiqamiz. Shoir ijodini kuzatish davomida uning so'z qo'llashdagi ustaligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shoirning boshqa ijodkorlarga o'xshamaydigan antonimlarni qo'llashdagi mahorati, ya'ni bir bandning o'zida bir necha antonimlarni qo'llanishi shoir ijodi qiymatini yanada oshiradi.

Goho **o'tmish**, goh **kelajakka**

Yo'l-yo'lakay kirib chiqishar,

Hal qilishar olam taqdrin,

Kimni qo'yib, kimni yiqishar. (S.168-bet)

Yuqorida keltirilgan banddagi **o'tmish va kelajak** so'zlari o'zaro leksik antonimdir. *O'tmish* "o'tgan, ilgirigi davr, kechmish, moziy" (71, II.521-bet) degan

ma'noni anglatadi. *Kelajak* leksemasi esa “*hozirgipaytdan keyin keladigan zamon, davr; kelgusi* ” (71, I.376-bet) ma'nosini ifodalaydi.

Og'izlarda bulutday ko'pik,
yuzlari **oq**, ichlari –**qora**,
qizig'i, bu zotlar qaylarda
kimlarnidir qilar idora. (S.168-bet)

Mazkur misrada *oq* va *qora* antonim so'zlari qo'llangan.

Oq (*qor, sut, paxta rangidagi*) (71, I.557-bet) o'zining rang semasidan chekinib, ko'chma ma'nodagi “*to'g'ri, haqiqat*” (71, I.557-bet) ma'nosida keltirilgan.

Qora leksemasi ham rang ma'nosidan chekinib, “*yolg'on, nohaq*” ma'nosi qo'llan-moqda. Misraning jozibadorligini oshirish maqsadida *oq* va *qora* antonimlari qo'l-langan. Bunday na'munalar Shavkat Rahmon ijodida juda ko'p uchraydi va o'zining mazmun-mohiyati bilan o'zaro farqlanadi.

Surib qo'yar vaqt kaftgirin,
kunduzlarni do'ndirar **tunga**,
pastda sho'rlik merovlar esa
sig'inardi xudoday unga. (S.171-bet)

Kunduz va tun leksemalari ushbu misrada antonimdir. *Kunduz* so'zi “*sutkaning quyosh chiqqandan to quyosh botguncha davom etadigan qismi* ” ni (O'TAIL 120-bet) bildiradi. *Tun* so'zi “*sutkaning quyosh botgandan to quyosh chiqquncha davom etadigan qismi* ” (67, 120-bet) ma'nosini anglatadi. Kunning qismi nuqtai nazaridan **kunduz va tun** leksemalari antonimlikni vujudga keltirgan.

Go'yo shu yer
shu xokisor yer
farqlar **yaxshi, yomon** barini,
tanib olar bir kun baribir
o'zin asl jallodlarini. (S.177-bet)

Shoirning “Ko'zlar” she'rida **yaxshi va yomon** antonimlari qo'llangan. Bu so'zlar ko'p ma'noli so'z bo'lib, yaxshi va yomon so'zlarining bosh ma'nolari quyidagilar: **yaxshi** “*ijobiy sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan, ijobiy*

baholanadigan talabga javob beradigan ” va **yomon** esa “ *salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lgan, salbiy baholanadigan, talabga javob bermaydigan*”. Ushbu she’rda shoir yerga murojaat etib, **yaxshi** so‘zining “*ijobiy sifatlarga ega bolish*” ma’nosi bilan **yomon** so‘zining “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lish*” zid semalaridir. Ushbu o‘rinda shoir ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’no qirralarini ochish barobarinda antonimlarning ham g‘o‘zal na’munasi yaratgan.

Daraxtlar –

men itday sezdim o‘zimni,
go‘yo tirik jonmas, kesilgan dastman,
boshimni ko‘tarib sizga qarayman,
naqadar **balandsiz**,
naqadar **pastman**. (S. 250-bet)

Ushbu bandda **balan** va **past** leksemalari antonimlardir. *Baland* so‘zi “*pastdan yuqoriga tomon o‘lchamli, qaddi, bo‘yi uzun, novcha, daroz*” (71, I. 557-bet) ma’nosini bildiradi. *Past* “*yuqori tomon o‘lchami, qaddi, bo‘yi uncha baland bo‘lmagan, balandligi, bo‘yi nisbatan qisqa; pakana pastak*”. (71, I. 577-bet) Bu antonim so‘zlar misraning ta’sirchan va betakrorlogini ta’minlagan.

Turkona hovlilar kunga qaragan,
Achchiq mevasidan **shirin** boli ko‘p,
Ko‘rimsiz eshiklar mangu yopilmas,
Teragidan ko‘ra majnuntoli ko‘p... (S. 223-bet)

Ushbu bandda **shirin** va **achchiq** so‘zlari leksik antonimdir. **Shirin** *shakar, bol, qiyomning ta’miga oid bo‘lib, achchiq ta’mi, mazzasi o‘tkir; og‘izni achitadigan* manosini ifodalaydi. Bu bandda *shirin* va *achchiq* so‘zlari badiiylikni ifoda etgan hamda tazod san’atining vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Yov degani **mard** bo‘lsa...

Ammo **nomardi** ko‘p,
seni ruhan yakson qilmoq maqsadi.
Qay bir burchaklarda sevinarlar xo‘b,
jo‘mard do‘stlaringni zor-zor qaqshatib.

Mard va **nomard** leksik antonim bo'lib, bir xil o'zakli so'zdan so'z yasalgan. *Mard* “*qo'rqishni bilmaydigan; qo'rqmas, botir*” (71, I. 447-bet) ma'nosini, *nomard* “*yuragi yo'q qo'rqoq*” (71, I. 508-bet) ma'nosini bildiradi. Shuningdek, ushbu misrada keltirilgan **jo'mard** so'zi „*olijanob, olihimmat, hotam*“ (71, II. 117-bet) ma'nosini anglatib, *nomard* so'zi bilan antonimlik hodisasini yuzaga keltiradi. Shoir bu misrada bir xil o'zakli so'zlarni qo'llab, misradagi ohangdoshlik orqali she'rning mazmundorligini oshirgan va o'ziga xos betakror misralar yaratgan.

Go'zallik, poklikdan uyalib,
qisilib, qimtinib turasan,
qop-qora devorga suyanib,
yop-yorug' xayollar surasan. (S.17-bet)

Yuqorida keltirilgan she'riy banddagi (**qop – qora va yop-yorug'**) so'zlari o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksimalar bo'lib, mazkur misrada muallif tomonidan antonimlik munosabatiga kiritilgan. Bu o'rinda *yorug'* va *qora* sifatlari ortirma darajada qo'llanib, **qop-qora** so'zi “*qop-qora soch; qop-qora tun*” (O'TIL.II.599-bet) o'z ma'nosida qo'llangan. Qop-qora lesimasinig “*zimiston, baxtsiz, ko'rimsiz*” semalari **yop-yorug'** leksemasidagi *ravshan, charog'on, baxtli* semasi bilan o'zaro zidlangan va kontekstual antonimlikni vujudga keltirgan. Kontekstual antonimlar hosil qilishning asosiy sababi leksemalardagi zid semalardir. Har qanday so'z ham matnda kontekstda antonim bo'la olmaydi. Leksik antonimiyada bo'lgani kabi kontekstual antonimlarda ham bir-biriga zid semalar bo'lishi shart. Shavkat Rahmon ijodida kontekstual antonimlarning eng go'zal namunalari uchratishimiz mumkin.

Ey, shoir,
basharning dardini olib,
umrbod xor bo'lib yashagan shoir,
faqat sen bilasan - dard girdobida
yashamoq **go'zaldir**,
yashamoq **og'ir**. (S.277-bet)

Mazkur misralardagi antonimlar (**go‘zal** – **og‘ir**) o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalar bo‘lib, yuqorida tahlil qilganimizdagidek kontekst ichida antonimik munosabatga kirishgan. **Go‘zal** “*juda ham chiroyli, husndor, xushro‘y*” ma’nosini bildirib, bu leksemada “*zavq-shavqqa boy*”, “*serzavq, unutilmas*” (71, I.201-bet) semalari bor. **Og‘ir** “*Vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan; vaznli, vazmin*” ma’nosini bildirib, og‘ir leksemasida “*mashaqqatli*”, “*murakkab*” “*mushkul*” (“*tuyg‘u*”) (71, I.562-bet) semalari mavjud. **Gozal** leksemasidagi “*zavq-shavqqa boy*”, “*serzavq, unutilmas*” semasi, **og‘ir** leksemasidagi “*mashaqqatli*”, “*murakkab*”, “*mushkul*” semasi zidlikni hosil qilgan. Ijodkorning bu o‘rindagi so‘z qo‘llash mahorati ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bitta so‘z dilingni kuydirar talxday,

Aytmasang **yorug‘dir**,

Aytsang – ul **yog‘iy**. (S.283-bet)

Ushbu banddagi **yorug‘**– **yog‘iy** so‘zlari o‘zaro antonim emas. **Yorug‘** “*yonib, qizib turgan narsadan tarqalgan yog‘du, nur; ravshan charag‘on; baxtli, yorqin*” (71, I.562-bet) ma’nosini ifodalaydi. **Yog‘iy** so‘zi esa “*dushman, g‘anim*” (71, II.58-bet) ma’nosini ifodalaydi. **Yorug‘** leksemasidagi *ravshan, charog‘on, baxtli* semasi bilan, **yog‘iy** leksemasidagi *qorong‘u – zimiston, baxtsiz* semalari o‘zaro zidlikni vujudga keltirgan va kontekstual antonimlikni hosil qilgan. Shuningdek misralardagi **aytsang** – **aytmasang** so‘zlari ma’no jihatidan leksik antonim deb hisoblashimiz mumkin, ammo bizga ma’lumki, fe’lning bo‘lishsizlik shaklini yasovchi –**ma** affiksi antonim juftliklarni hosil qilmaydi, shuning uchun **aytsang** – **aytmasang** so‘zlari antonim juftlik hisoblanmaydi. Bu shoirning so‘zdan o‘rinli foydalanish mahoratining yana bir qirrasidan dalolat beradi.

Shoir ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadigan jihatlardan yana biri shunda-ki, u leksik- frazeologik antonimiyadan o‘rinli foydalangan. Masalan quyidagi misrani ko‘radigan bo‘lsak:

Ko‘zlaringdan tanidim seni,

Yo‘liqqandik moziyda bisyor,

Ko‘ngli ochiq pahlovon edim,

Sen botiniy **munofiq,ayyor**. (S.165-bet)

Ushbu misralardagi **ko‘ngli ochiq** frazemasini bilan **munofiq,ayyor** leksimalari ma‘no jihatidan bir-biri bilan antonimlik munosabatiga kirishgan. Bu o‘rinda **ko‘ngli ochiq** frazemasini *xafa yoki xursandligini yashirmaydigan; tortinmay gaplashaveradigan* (71, I.415-bet) ma‘nosini ifodalaydi. **Munofiq, ayyor** so‘zlari esa *samimiyligi yo‘q; ikki yuzlama; quv, mug‘ombir* (71, I. 31-480-betlar) ma‘nosini ifodalaydi. **Ko‘ngli ochiq** frazemasidagi *xafa yoki xursandligini yashirmaydigan* semasi bilan **munofiq ayyor** leksimasidagi *samimiyligi yo‘q; ikki yuzlama* semalari antonimlikni hosil qilgan.

Qorlar yog‘di,

Og‘ridi jonim,

Uxlayotgan bog‘lar poyida

Kuylolmasdim, undan yomoni

Yashil edim qantar oyida... (S. 79-bet)

Yashil so‘zi “*yashil rangli yosh maysalar, o‘sinliklar bilan qoplangan*” (71, II. 490-bet) ma‘nosini anglatadi. **Qantar oyi** birikmasi “*qishning yarmi o‘tdi, ikkinchi yarmi boshlandi*” (71, II.551-bet) ma‘nosini ifodalaydi. **Yashil** leksemasidagi *bahor* semasi, **qantar** leksemasidagi *qish* semasiga ziddir. Yozuvchi bir – birini inkor etadigan ikki tushunchani bir misraning o‘zida qo‘llagan va leksik ma‘nosidan foydalanib, o‘zaro zid ma‘noli birikmani hosil qilgan. Bu hodisa oksyumoron hodisasi sanaladi.

Adabiyotimida oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo‘lgan ikki tushunchani ifodalovchi so‘zlar o‘zaro qo‘shib qo‘llab qo‘llaniladi. Oksyumoron grekcha so‘z bo‘lib, “o‘tkir lekin bema‘ni” degan ma‘noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda “okkozional birikma”, “noodatiy birikmalar” yoki “g‘ayriodatiy birikmalar” [4, 38-47] deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko‘nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta‘minlaydi. *Yashil edim qantar oyida, sovuq yuzlarga iliq tabassum, jodugar pari, qora nur, oppoq tun* kabi birikmalar oksyumoronga misol bo‘ladi. Bunday g‘ayriodatiy birikmalar

antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma’lumki, istalgan ikki so‘zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g‘ayriodatiy birikmalarning mantiqsizlik bilan bog‘lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur [9, 73].

Shavkat Rahmon ijodini leksik xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, bunda sinonimlarning maftunkor namunalari, omonim so‘zlardan hamda antonimlarning turli ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalanganligi e’tiborimizni tortadi. Ijodkorning she’rlari adabiy jihatdan mazmundor bo‘libgina qolmay, balki uning asarlari til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so‘z qo‘llash mahoratining o‘ziga xosligi va so‘zga boyligi ko‘zga tashlanadi.

2.3. O‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam so‘zlari

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi o‘zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi so‘zlarning paydo bo‘lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir.

Umuman, har qanday til o‘z lug‘at boyligi va grammatik qurilishiga ega bo‘ladi. Lekin xalqlar o‘rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham shubhasiz, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir tilga o‘tib, o‘zlashib ketadi. Bunday o‘zaro ta’sir etish, ayniqsa leksika-da kuchli bo‘ladi.

O‘zbek xalqi ham o‘z tarixiy davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo‘lganlar va bu xalqlarning tili o‘zbek tiliga ma’lum darajada o‘z ta’sirini qoldirgan. Xususan boshqa tillardan o‘zbek tiliga ko‘plab so‘zlar o‘zlashganini shu ta’sir bilan izohlash mumkin. Natijada o‘zbek tili lug‘at xazinasida leksik qatlam ham yuzaga kelgan [26, 114].

O‘z qatlam – o‘zbek tili leksikasining umumturkiy so‘zlar va sof o‘zbek so‘zlaridan iborat qismlari.

Sof o‘zbek tili leksikasi qatlamiga o‘zbek tilining mustaqil til bo‘lib shakllangan davrdan to bugunga qadar yasalgan so‘zlar kiradi. Bu so‘zlar faqat o‘zbek

tilining o'zida paydo bo'lganligi sababli umumturkiy hamda o'zlashma so'zlardan farqlanadi. O'zbekcha so'zlar o'zga tillardan olinmay, o'zbek tilining o'z ichki manbalari asosida yuzaga kelgan [44, 60].

1. Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan;

2. Sof o'zbek tillari – o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalardir. Ular o'z qatlamning ikkinchi qismini tashkil qiladi. Bunday yasashning quyidagi turlari bor: a) semantik usul – ma'no taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: ko'k –rang, ko'k- osmon kabi; b) affiksatsiya usuli – bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilinig so'z yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi. Masalan, **jang-** (fors-tojik) + chi (o'zbek) =jangchi (o'zbek).

O'zlashgan qatlam – o'zbek tili leksikasining boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Bu qismga arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan so'z o'zlashtiriladi.

Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llanadigan so'zlarni tadqiq qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad shoirning leksika sohasida tutgan yo'lini belgilash barobarida XX asr oxirlaridagi o'zbek tili leksikasining ma'lum bir jihat va xususiyatlarga hamda holatiga ayrim oydinliklar ham kiritib o'tishdan iborat.

Tiyrak ko'zlari – la azob onlarim
xotirjam sanagan qattol bir xob bor.
Bugun adolatdan damon so'z qotib,
yovar qalblarda kim uyg'otsa nola,
bilingkim,
qaytibdi ming yillar oldin
qilichlar damiga panj urgan bola.
Bu xotirjam yuzlar,
g'ulom andomlar,

bu soda tafakkur, bu talx nisonlar.

Bu mastlik aralash junun ayyomdan

yuksalib qaragan tamkin insonlar. (S.280-bet)

Ijodkorning “**Buddaga bir nazar**” she’ridan olingan mazkur bandlarda o‘ziga xos mazmun- mohiyat aks etgan bo‘lib, unda quyidagi so‘zlar **o‘z qatlamga** mansubdir: *bor, bir, bugun, bola, bu, ming, aralash, yil, kim, ko‘z, qilich, tiyrak, oldin, urgan, sanagan.*

Shavkat Rahmon she’riyatida qo‘llangan arab va fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Fors-tojik tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda so‘z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi, kuchsiz lablangan “o” unlisi so‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanish holati kuzatiladi [8, 155].

Mazkur banddagi “*xob, yovar, andom, talx, nola, dami, panj*” kabi so‘zlar **fors-tojik** tilidan o‘zlashgan. Ayni shu holat ushbu so‘zlarda o‘z aksini topgan va she’rdagi badiiylilikni ta’minlagan.

Azob, adolat, ayyom, inson, junun, qattol, tamkin, g‘ulom, xotirjam, qalb, tafakkur, on kabi **arab tilidan** o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasida arab tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarining ko‘pchiligi ot, sifat va ravish turkumiga mansubdir. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishi o‘tmishda faol bo‘lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to‘xtagan [8, 190].

Shavkat Rahmon she’rlarida o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llar ekan, u juda ko‘p omil va xususiyatlarni hisobga olilshga harakat qilgan: qo‘llanayotgan o‘zlashma so‘zning ma’no mazmuni keng xalq ommasi uchun to‘la va aniq, tushunarli bo‘lishi kerak; qo‘llanayotgan o‘zlashma so‘z xalqning ongiga chuqur singgan bo‘lishi; uning yot unsur ekanligi bilinmasligi kerak; o‘zlashgan so‘z xalqning jonli so‘zlashuv uslubida qo‘llanishi lozim. *Ayyom, talx, xob* so‘zlari **badiiy uslubga** xos bo‘lib, badiiylilikni oshirish maqsadida qo‘llangan.

O‘zbek tili lug‘at boyligini oshirish yo‘lida boshqa tillarda xos so‘zlarni qo‘llash lu‘gat tizimida yangi sinonimik qatorni yuzaga keltirish shoirning ijodida kuzatiladi:

Ulkan, dag'al kaftlar –

Yaproqlarida

Oltin anjirlarni tutar anjirzor. (S.221-bet)

Qushlar do'nar qora **barglarga**,

nurlar so'nar shab namplarida.

Qurbaqalar yorila boshlar

Yo'lovchi - vaqt qadamlarida...(S.51-bet)

Barg tojik tilidan o'zlashgan, **yaproq** so'zi esa *o'zbek tiliga* xos. Shoir o'rinsiz takrorlarning oldini olish maqsadida, o'zlashma so'zlardan sinonimlarni qo'llashda foydalangan. Shavkat Rahmon ijodida bunday o'zlashma so'zlar orqali sinonim so'zlar hosil qilingan holarni ko'p uchratishimiz mumkin. Bu bo'lsa fikriy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ibtidoiy, o'tkir qoyalar...

Bu tog'larning osmoni moviy,

bunda gullar farishtasimon,

bunda hatto toshlar samoviy. (S.59-bet)

Ushbu bandda *o'tkir, qoyalar, bu, tog'lar, bunda, toshlar, farishtasimon* kabi *o'z qatlamga* mansub, **moviy, ibtidoiy, samoviy** arab tiliga, **osmon, gul** forstojik tiliga mansub so'zlar. Sof o'zbek so'zlari – o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalardir. Asos boshqa tildan olingan-u, ammo qo'shimcha o'zbek tiliga tegishli bo'lsa, bu so'z o'z qatlamga mansub bo'ladi.

Ushbu banddagi **farishtasimon** so'zining asosi (farishta) arab tiliga xos so'z bo'lib, **-simon** affiksi o'zbek tiliga xos yasovchi qo'shimcha bo'lganligi sababli farishtasimon so'zi o'z qatlamga xos so'zdir. Bunday so'zlar o'zbek tilini boyishiga xizmat qiladi.

Ozbek tilida shunday o'zlashma so'zlar borki, ularda yot unsurlar umuman sezilmaydi, xalqning so'zlashuv uslubiga singib ketgan. Bu ham bo'lsa tillar bir-biri orqali boyishiga muhim dalildir.

Go'yoki londonlar,

parijlar yo'qdir,

odamzod turganday bir yoqqa qarab.
Qaltis lahzalarda bir holni ko‘rdim –
insonlar bir taraf,
dahshat bir taraf. (S.272-bet)

Odamzod, go‘yo so‘zlari *fors-tojik* tilidan o‘zlashgan. **Inson, dahshat, lahza, taraf, hol** arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar qo‘llangan..

Olaylik, uzog‘yil qor ko‘p yog‘gandi,
qor tagida qoldi Farg‘ona taraf,
o‘n ming **buldozer**da o‘sha qorlarni
sursak bo‘lmasmidi Orolga qarab. (S.356-bet)
Ulug‘ dard chayqalgan jismim bor xolos,
maydonlarga borsam shior ko‘tarib,
har yondan gurillab bosadi vosvos
manqurtlar **rezinka** to‘qmoq o‘qtalib. (S.346-bet)
oylarning uvalib tushgan pallasi,
yuraklar gulini kuydirgan dog‘lar,
kimlarga atalgan edi **faylasuf**
qoyalar boshida qoraygan dorlar. (S.332-bet)

Shavkat Rahmon ijodida *rus, ingliz, grek* tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar ham talaygina. **Buldozer** so‘zi ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “*yer surish va tekislash uchun maxsus keskich-surgich bilan uskunlangan traktor*”. (71, I.149-bet) **Rezinka** so‘zi rus tilidan o‘zlashgan “*tortganda cho‘ziladigan rezinali shnur, ip va sh.k.*”. (71, I.621-bet) **Manqurt** so‘zi tarixiy termin bo‘lib, “*o‘tmishda, ...xotirasi, aql-idroki, umuman, insonga xos xislat-fazilatlardan mahrum etilgan shaxs*” (71, II.541-bet) ma’nosini ifodalaydi. **Faylasuf** so‘zi grek tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “*aynan filosof; donolarcha muhokama yuritadigan, muhokamali*”. (71, II.292-bet) ma’nosida qo‘llanadi.

Ishimizning birinchi bobida Shavkat Rahmon she’riyatida qo‘llangan leksemalarning semantik xususiyatlarini tahlil qildik. Dastlab shoir ijodidagi ko‘p ma’noli so‘zlar haqida fikr yuritdik. Shavkat Rahmon she’rlarida ko‘pma’nolilik

hodisasidan mahorat bilan foydalanib, ma'no ko'chishning barcha usullarini ustalik bilan qo'llab, she'rlarida o'ziga xos mazmundorlik, joziba va ta'sirchanlikni ta'minlagan. Ma'no ko'chishning barcha turlaridan, ayniqsa, metafora va metonimiyadan unumli va o'rinli foydalangan.

Shavkat Rahmon ijodini til xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, she'rlarida uchraydigan so'zning shakl va ma'no munosabatlari yetarlicha go'zal va betakror ekanligiga guvoh bo'lamiz. Omonim so'zlar (*yosh, kun, kunda, o't, tuman*) va omomorfema (*unutgan**im** – sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha, so'lim – sifat so'z turkumi, o'lim – ot so'z turkumi*) ning go'zal qo'llanishlari, sinonimlar (*ko'ks – bag'ir, osmon – samo, ulkan – ulug'vor, tamoil – odat*)ning maftunkor namunalari hamda antonimlar (*o'tmish – kelajak, oq –qora, yaxshi – yomon, shirin – achchiq*)ning turli ma'no ko'rinishlari (*go'zal – og'ir, yorug' – yog'iy, ko'ngli ochiq – munofiq, ayyor*)dan ustalik bilan foydalanganligiga guvoh bo'ldik. Shoir she'rlari adabiy jihatdan mukammal bo'libgina qolmay, balki uning asarlari til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va so'zga boyligi ko'zga tashlanadi.

Shavkat Rahmon she'rlarida o'zlashma qatlamdan foydalanar ekan, u juda ko'p omil va xususiyatlarni hisobga olilshga harakat qilgan: qo'llanayotgan o'zlashma so'zning ma'no mazmuni keng xalq ommasiga uchun to'la va aniq, tushunarli bo'lishi kerak; qo'llanayotgan o'zlashma so'z xalqning ongiga chuqur singgan bo'lishi; uning yot unsur ekanligi bilinmasligi kerak; o'zlashgan so'z xalqning jonli so'zlashuv uslubida qo'llanishi lozim. Undan tashqari shoir ijodini kuzatar ekanmiz, boshqa tildan o'zlashgan so'zlardan xuddi o'z ona tili imkoniyatlaridan foydalangandek so'zning sinonimlari, antonomlari ko'p ma'noliligi kabi hodisalardan mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Yuqoridagi tahlillardan ham ma'lum bo'ldiki, Shavkat Rahmon ijodida so'zning shakl va ma'no-munosabatiga ahamiyat qaratib, ulardan imkon qadar go'zallik yaratishga harakat qilgan va she'riyatimizga jilokorlik bag'ishlagan.

III BOB
SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA
USLUBIY BO'YOQDORLIKNING IFODALANISHI

3.1. Uslubiy bo'yoqdor so'zlar.

Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan birgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatni tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemdir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi [20, 126].

O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'linadi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Bunday leksemalar borliq-hodisani boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi mumkin.

Uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'zlardan nutqda his-tuyg'ularni, so'zlovchining voqelikka, nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi.

Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:

1. Leksik usul.
2. Kontekstual usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Fonetik usul.
5. So'zni metaforik qo'llash usuli [8, 211-212].

Bo'yoqdorlik asarning ta'sirchanligi hamda badiiyligini ta'minlashda muhim vosita sanaladi.

...Kunlarga cho'karkan
misli hofiza,
borliqqa kechikkan rozini aytib,
ishondim, bu odam **nurday pokiza**,

ishondim, bu odam keladi qaytib... (S .265- bet)

Nurday pokiza “ *halol, pok, to‘g‘ri; chinakkam vijdoniy, sof, musoffo* ” (71, II.596-bet) ma’nosini ifodalaydi. Ushbu bandda *nurday pokiza* so‘zi voqelikka nisbatan ijobiy munosabatni ifodalash maqsadida qo‘llangan va nutqiy ta’sirchanlik oshirilgan

ko‘zlaring qurigan o‘zanlar kabi,
mushtlaring og‘riydi cho‘ntaklaringda,
sen hamon kichiksan,
bu olam **kabir**. (S.243-bet)

Ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar leksik ma’noning tarkibida bo‘ladi. Ijobiy bo‘yoqdor leksema so‘zlovchining borliq hodisaga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo‘ladi. Mazkur banddagi **kabir** so‘zi “*katta, ulug‘* ” (71, I.356-bet) ma’nosini anglatadi. Salbiy bo‘yoqdor leksema borliq hodisaga so‘zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular semasidagi salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo‘rtib turadi.

Oy sinig‘i to‘la suvloqqa
sharsharaday quyilgan yollar.
Bu yollarni silar mehribon
shabadalar – **ma’yus** ayollar. (S.57-bet)

Ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar leksik ma’noning tarkibida bo‘ladi. Ijobiy bo‘yoqdor leksema so‘zlovchining borliq hodisaga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo‘ladi. Mazkur banddagi **ma’yus** so‘zi esa “*noumid, tushkun holatli; tushkun*“ (71, I.455-bet) ma’nosini bildiradi.

Shoirlar uyg‘ota olmagan elni
Uyg‘otib yubordi **malomat, tuhmat**. (S. 318-bet)

Ushbu satrdagi **malomat, tuhmat** so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, **malomat** “*birovni haq-nohaq yomonlab aytigan gap; mazammat, ta’na*”(71, I.444-bet), **tuhmat** „*birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o‘ylab chiqarilgan asossiz da’vo; bo‘hton*“ (71, II.241-bet) degan ma’noni anglatadi. *Malomat va tuhmat*

leksemalarida salbiy baho semasi leksik ma'no tarkibida mavjud. Ushbu o'rinda *malomat*, *tuhmat* so'zlari orqali voqelikka salbiy munosabat ifodalangan.

So'zni metaforik usulda qo'llash bilan ham emotsional –ekspressivlik hosil qilinadi . Masalan, insonga xos xususiyatlar jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanganda, yoki aksincha hayvonlarga xos bo'lgan xususiyatlar insonga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llanganda, ijobiy yoki salbiy emotsional- ekspressivlik hosil bo'ladi. (Bunday hollarda so'zlarning ma'nosi asosan metaforik usulda ko'chgan bo'ladi.) Masalan:

Muzlikdan

Yuhodek kelgan shamollar

Tuyalar jismini yalab-ishlagan, (S.219-bet)

Ushbu misradagi *yuho* leksemasi „*barcha jonvorlarni aralash yeb, yutib boradigan afsonaviy maxluq*“. (71, II. 475-bet) ma'nosini ifodalaydi. *Yuho* so'zida salbiy baho semasi mavjud. Shu bilan birga, shamol leksemasiga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llangan.

Tong ochar ko'zlarin erinib,
sevinchdan **yig'laydi** qiyloqlar,
chechaklar **jilmayar** sevinib,
shamolda **cho'milar** giyohlar.(S. 55-bet)

Yig'lamoq, jilmaymoq, cho'milmoq kabi fe'llar insonga xos xususiyat sanaladi. Lekin bu so'zlar *qiyloq, chechak, giyoh* kabi predmetlarga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llangan . Insonga xos xususiyatlar jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanib emotsionallikni (ijobiylikni) ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Quyidagi misollarda ham insonga xos xususiyatlar jonsiz narsalarga nisbatan qo'llangan va bo'yoqdorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda:

Telvakezik, sayoq shamoldan
g'azablanib, ulkan, ulug'vor
boshin chayqab qo'yar-da, uzoq
g'ijirlatar tishlarin chinor. (S. 50-bet)

Mazkur misrada ***g'ijirlatmoq*** “*bir-biriga ishqalanish natijasida “g'ijir-g'ijir” tovush chiqarmoq, g'ichirlamoq*” (71, II 656-bet) ma’nosini anglatadi. *G'ijirlatmoq* soʻzi orqali salbiy ekspressivlik ta’minlangan va she’rning badiiyligi oshirilgan.

Endi uning **sochlari kumush,**

oq ipaday **qo’llari qadoq.**

Ko’zlarida limmolim kadar

bag’ri **dog’li**, yuragi **adoq.** (S.37-bet)

She’rning badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladigan muhim vositalardan biri boʻyoqdor soʻzlardir. Ushbu bandning birinchi misrasida **sochlari kumush** birikmasi tarkibidagi *kumush* soʻzi koʻchma ma’noda kishining yoshi oʻtib, qarigan chogʻda sochini oqarishini ifodalagan. Bunda soʻzni metaforik usulda qoʻllash bilan emotsional - ekspressivlik ifodalangan.

Ikkinchi misradagi **qo’llari qadoq** birikmasidagi *qadoq* leksimasi “*uzoq ishqalanish natijasida terida hosil boʻladigan qattiq qavariq*” (71, II 534-bet) ma’nosini anglatadi. *Qadoq* soʻzining qoʻlga nisbatan qoʻllanishi salbiy ekspressivlikni vujudga keltirgan. Shuningdek, toʻrtinchi misradagi **bag’ri dog’li, yuragi adoq** birikmalaridagi *dog’li* va *adoq* soʻzlari, **dog’** “*og’ir musibatdan, qayg’u-kulfatdan ko’ngilda qolgan alam*” (71, I.235-bet), **ado** „*tashvish, dard orqasida holdan toymoq, tamom bo’lmoq*“ (71, I.27-bet) ma’nolarini ifodalagan va shuning asnosida salbiy ekspressivlik ta’minlanmoqda.

3.2. Shavkat Rahmon she’riyatida qoʻllangan

eskirgan soʻzlarning uslubiy xususiyatlari

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi oʻzgarish tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada oʻzgarish boʻlishiga olib keladi. Bunday oʻzgarish tilning leksik sathida ancha sezilarli kechadi. Bunda toʻrt holat kuzatiladi. Birinchidan, ayrim soʻzlarning eskirib, iste’modan chiqishi kuzatilsa, ikkinchidan allaqachonlar iste’modan chiqib ketgan soʻzlar qayta “jonlanadi”, “tiriladi”, uchinchidan, yangi-yangi soʻzlar paydo boʻladi, toʻrtinchidan nafaol soʻzlar faollashadi, iste’mol doirasi kengayadi, ma’noviy tabiatida oʻzgarish yuz beradi.

Hozirgi tildagi eskirgan soʻzlar eski leksika, yangi soʻzning jami yangi leksika, na eskirgan, na yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar betaraf leksika deb yuritiladi. Demak, oʻzbek tili leksikasini tarixiy nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga boʻlib oʻrganish mumkin:

1. Betaraf leksika.
2. Eskirgan leksika.
3. Yangi leksika.

Eski qatlamga oid leksemalar oʻziga xos xususiyatiga koʻra ikkiga boʻlinadi:

- 1) tarixiy leksema;
- 2) arxaik leksema.

Tarixiy leksema hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanuvchi oʻtmishga oid, isteʼmoldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksema.

Tarixiy leksema bildiradigan narsa-hodisa isteʼmoldan chiqib, oʻtmish voqeligiga aylanganligi sababli, bu leksemaning koʻpchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish boʻlishi mumkin.

Arxaizm oʻz oʻrnini boshqa leksemaga boʻshatib bergan leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan aytilib, avvalgilari isteʼmoldan chiqib ketadi.

Arxaik leksema oʻzining neytral leksika tarkibidagi “oʻrinbosar”ining “tarixiylik boʻyogʻi” ifoda semasi bilan farqlanuvchi sinonimdir. Ular atash va vazifa semalari mushtarak birliklar.

Tilda boʻladigan oʻzgarishlar uzoq davom etadigan tadrijiy jarayon. Shu boisdan yangi leksema tilga birdan kirib kelmaganligi kabi leksemalarning tarixiylashuvi va arxaiklashuvi ham asta-sekinlik bilan yuz beradi. Shu boisdan tarixiylashish va arxaiklashish hodisasini ham darajalash mumkin.

Tarixiylashish yoki arxaiklashishning quyi darajasidagi leksema tilning bugungi bosqichida kam boʻlsa ham, isteʼmolda boʻlsa, yuqori darajadagi eskirish natijasida leksema butkul isteʼmoldan chiqib ketadi [20, 121-122].

Tarixiy leksemalar hozirgi o'zbek tilida ham zarurat taqozosiga ko'ra qo'llaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asar va badiiy asarlarda ekspressivlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Shavkat Rahmon ijodida ham eskirgan qatlamga oid so'zlar miqdor jihatdan ko'pni tashkil etadi.

Turibsiz

habashiy qullarday **mahzun**,

yo'q, turkiy shevali pahlavonlarday, (S. 185-bet)

Ushbu banddagi **mahzun** so'zi eskirgan so'z bo'lib, "*hazin mungli, g'amgin*" (71, I.457-bet) ma'noni anglatadi. Ijodkor eskirgan so'zlarni ma'lum bir poetik maqsadini amalga oshirishda qo'llagan. Mazkur so'zni shoir nutqqa ko'tarinki, nazokatlikni ifodalash uchun qo'llagan.

Shavkat Rahmon ijodida eskirgan qatlamga oid so'zlar ko'pni tashkil etadi. Bunday so'zlar ma'lum bir uslubiy xususiyatlarni amalga oshirishda qo'llagan.

Ayniqsa,

bahorni xo'b ko'rar hazrat,

jannatday shaharning harir shablari,

bulduruq shu'lalar yoshartgan **ravza**

ancha ravshan qilar nozik ta'blarin. (S.285-bet)

Ravza so'zi arabcha so'z bo'lib, "*gulzor, gulshan; bog*" (71, I.610-bet) ma'nosini bildiradi. Ushbu banddagi **ravza** so'zi she'rdagi badiiylilikni oshirish maqsadida qo'llanilgan.

Bu xotirjam yuzlar,

g'ulom andomlar,

bu soda tafakkur, bu talx nisonlar.

Bu mastlik aralash *junun ayyomdan*

yuksalib qaragan tamkin insonlar. (S.280-bet)

Ushbu bandda **g'ulom** arxaik so'zi qo'llangan bo'lib, "*saroyda xizmat qiluvchi yosh yigit, xizmatkor*" (71, II.665-bet) degan ma'noni anglatadi. Ushbu

banddagi *g‘ulom* arxaik so‘zi she‘rdagi badiiy ta‘sirchanlikni oshirish maqsadida qo‘llanilgan.

Yolg‘onlar chekindi,

Yuksaldi nafrat,

Kecha shod ko‘zlarni sindirdi **jola**. (S. 328-bet)

Mazkur satrdagi **jola** so‘zi fors-tojik tilidan bo‘lib, “*ko‘z yoshi*” (71, II.101-bet) ma‘nosini ifodalaydi. Bu arxaik so‘z nutqning badiiyligini oshirishga xizmat qilmoqda..

Shavkat Rahmon she‘riyatida shunday arxaik so‘zlar uchraydiki, ular obrazlilik ifodalangan fikrning ta‘sirchanligini, nafisligini ta‘minlagan:

Hali zahar-zaqqum totini bilmay,

mashriqdan mag‘ribga ko‘chgan saboda,

haris nigohlarni nazarga ilmay,

hilolday porlardi ko‘m-ko‘k **qaboda**. (S. 349-bet)

Mazkur satrdagi **mashriq**, **mag‘rib**, **hilol**, **qabo** so‘zlari arxaik, eskirgan, kitobiy so‘z bo‘lib, **mashriq** “*sharq, kun chiqish*” (71, I.453-bet), **mag‘rib** “*g‘arb, kun botar*” (71, I.457-bet), **hilol** “*yangi chiqqan oy, uch kunlik oy*” (71, II.697-bet), **qabo** “*ustki kiyim, libos*” (71, II.530-bet) degan ma‘noni anglatadi. Ushbu banddagi **hilol** va **qabo** so‘zlari she‘rdagi badiiylilikni oshirish maqsadida qo‘llanilgan.

Moziy to‘lgan mungli sadoga,

bir sadoki,

ulug‘vor, **kabir**,

sahrolarda adashib ketgan

karvonlarning sadosi kabi. (S. 174-bet)

Eskirgan so‘zlarni shoir she‘rda ma‘lum bir uslubiy maqsadni amalga oshirishda qo‘llagan. Bandda keltirilgan **kabr** so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “*katta, ulug‘*” (71, I.356-bet) ma‘nosini anglatadi. Hozirda kabir so‘zi she‘riy nutqda ta‘sirchanlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladi. **Moziy** so‘zi **arabcha** so‘z bo‘lib, eskirgan qatlamga oid. Bu so‘z “*o‘tgan, o‘tib ketgan zamon*” (71, I.469-bet)

ma'nosini ifodalab, she'rdagi badiiylikni oshirish hamda misralardagi nafislikni ta'minlash uchun qo'llangan. Arxaik so'zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. she'riyatda nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlash maqsadida ishlatiladi [9, 57].

Burg'ular chirigan...
zanglagan tig'lar...
itlar tomoq ichar oltin tojidan,
moziyga tikilib **mug'anniy** yig'lar,
she'r yozib **o'ltirar** lashkarboshilar. (S. 341-bet)

Mazkur misradagi **mug'anniy** so'zi fors tilidan olingan bo'lib, " *nag'ma chaluvchi sozanda, nag'ma bilan qo'shiq aytuvchi xonanda* " (71, I.487-bet) ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z eskirgan qatlamga mansub bo'lib, misraning go'zal tasviri uchun qo'llanadi.

Bandda qo'llangan *o'ltirar* eskirgan so'z bo'lib, fe'ning ravishdosh shakli. Bu so'z poetik uslubga xos bo'lib, so'zlashuv uslubida ishlatilmaydi. She'rdagi badiiylikni oshirish maqsadida qo'llanadi.

Bilmadim,
xayoliy dunyomidir **bul**,
jud**lig'** bag'rimni tugatdi tamom,
yana bu tuban**lig'** dashtida **maqtul**
jismimni unutib izlayman **payg'om**. (S.330-bet)

Mazkur misradagi *maqtul* so'zi eskirgan, kitobiy so'z bo'lib, " *qatl etilgan, o'ldirilgan* " (71, I. 457-bet) ma'nosini anglatadi. *Payg'om* so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, " *xabar, mujda* " (71, .I. 568-bet) ma'nosini anglatadi. Shuningdek, baytdagi *bul* so'zi hozirgi *bu* ko'rsatish olmoshining arxaik variantidir. *Judolig'*, *tubanlig'* so'zlarida *-lig'* hozirgi mavhum ot yasovchi *-lik* qo'shimchasining qadimgi ko'rinishi.

Bir yillik,
o'n yillik masofalardan

ko‘z ochib yumguncha o‘**tmak** imkoni
buyuk kelajakning qaysi qsrida? (S. 278-bet)

Mazkur misrada qo‘shimchalarning arxaik shaklini qo‘llangan. *Otmak* so‘zidagi –**mak** harakat nomining eski o‘zbek tilidagi shakli, hozirda bu qoshimcha (*o‘t + moq = o‘tmoq*) tarzida qo‘llanadi.

Bu yurtda
Hamisha fitnadan
Ulug‘lar *yiqilur* yuztuban,
peshobin oqizib bitmagan
fitnachi o‘tajak ustidan. (S. 322-bet)

Quyida berilgan *yiqilur* leksemasidagi –**ur** affiksi kelasi zamon sifatdoshining eskirgan shaklidir.

Bunday qo‘llanishlar fikrning ta’sirchanligini hamda nafisligini ta’minlashga xizmat qiladi:

“Ey saxovatli zot,
kechir**gil** meni,
qushlarning tilini faqat qush bilgay.” (S. 308-bet)
Armonim ulug‘dir...
Ko‘zyoshim ulkan,
O‘lsam, jasadimga yurtim to ‘**lajak**.
So‘nggi zuryodimni zaharlar qullar,
So‘nggi chechaklarim aynib so ‘**lajak**. (S.329-bet)
Voh, yalahg shoxlarim qilichday keskir.
bir yaproq qolmapti shivirlay**turg‘on**. (S.371-bet)

Shavkat Rahmon arxaik so‘zlardan she’rning badiiy qiymatini oshirish, ohangdorligini ta’minlash, ba’zida esa qofiyani moslash uchun qo‘llagan.

Bilmadim,
xayoliy dunyomidir **bul**,
jud**lig**‘ bag‘rimni tugatdi tamom,

yana bu tuban**ligʻ** dashtida **maqtul**

jismimni unutib izlayman **paygʻom**. (S.330-bet)

Mazkur misradagi *maqtul* soʻzi eskirgan, kitobiy soʻz boʻlib, “*qatl etilgan, oʻldirilgan*” (71, I. 457-bet) maʼnosini anglatadi. *Paygʻom* soʻzi fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, “*xabar, mujda*” (71, I. 568-bet) maʼnosini anglatadi. Shuningdek, baytdagi *bul* soʻzi hozirgi *bu* koʻrsatish olmoshining arxaik variantidir. *Judoligʻ, tubanligʻ* soʻzlarida *-ligʻ* hozirgi mavhum ot yasovchi *-lik* qoʻshimchasining qadimgi koʻrinishi.

3.3 Nutq koʻrinishiga xoslangan leksemalar xususida

Nutqning ikki koʻrinishiga munosabat jihatidan lugʻat boyligidagi soʻzlar ikki xil qatlamga birlashadi.

I. Umumnutq qatlam soʻzlari. Bunday soʻzlar adabiy nutqda ham, soʻzlashuv nut-qida ham bir xil darajada ishlatiladi. Lugʻat boyligidagi soʻzlar koʻpchiligi shu qatlamga mansubdir: zamonaviy qatlam soʻzlarining ishlatilishi, chegaralanmagan leksikaning aksaryati ; shuningdek, sinonimik qatordagi dominantlar, uslubiy boʻ-yogʻi boʻlmagan betaraf maʼnoli soʻzlar umumnutq qatlam birliklari sanaladi.

II. Nutqning maʼlum koʻrinishiga xoslangan soʻzlar. Bunday soʻzlar nutqning faqat bir koʻrinishiga (mas adabiy nutqqa) xoslangan boʻlib, boshqa koʻrinishida (mas soʻzlashuv nutqida) ishlatilmaydi, yoki aksincha, soʻzlar nutqida qoʻllanib, adabiy nutqda ishlatilmaydi.

1. Adabiy nutqning oʻzi ham ikki xildir: rasmiy nutq va badiiy nutq.

- rasmiy nutqda fikrning ifodalanishi isbotlarga, faktlar taʼkidlanishiga tayanadi, shuning uchun unda tasviriy vositalar, uslubiy boʻyoqdor soʻzlar ishlatilmaydi: toʻgʻri maʼnodagi soʻzlarning va soha terminlarining qoʻllanishi koʻproq adabiy nutqning shu koʻrinishiga xosdir.

- badiiy nutqda koʻchma maʼnoli soʻzlar, ijobiy baho, semalari boʻlgan leksemalar (tabassum, mardonavor, chehra kabilar) faol qatnashadi. Oʻzbek tilshunosligida badiiy uslub maxsus monografik tarzda oʻrganilgan [38]. Bu uslubga xos morfologik va sintatik xususiyatlar haqida ham maʼlumotlar mavjud. Ammo badiiy uslubning fonetik vositalari haqida ilmiy va amaliy ishlar sanoqlidir.

Badiiy nutq obrazli va hissiy ta'sirchan bo'ladi. Mazkur uslubda yozilgan asar o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Bunday uslubda til vositalarini saylashga mavzuiy va uslubiy chegara-lanish bo'lmaydi. Badiiy uslubdagi asarlarda boshqa nutq uslublariga xos belgilar ham uchraydi [64, 36].

2. So'zlashuv nutqida fikr ifodasi ancha erkin bo'ladi, unda adabiy nutqqa xos bo'lmagan oddiy so'zlar (qittay, ketivorgan...), dialektizmlar (opoqi, opog'o-yi, kallapo'sh...), jargonizmlar (loy, yakan, satil...), salbiy emotsiya ifodalovchi so'zlar (bashara, tirjaymoq...), vulgarizmlar (vulgar so'zlar qo'pol so'zlar bo'lib, ular odatda qamoqda o'tirganlar, giyohvandlar, daydilar – ijtimoiy qiyofasini yo'qotgan qatlam tili hisoblanadi [56, 17]) (go'rso'xta, to'nka, so'tak...), laqablar (Bo'tqa, Burun, Qilich...) ba'zan, hatto o'zbek tiliga o'zlashmagan, demak, o'zbek tili birligi darajasiga yetmagan boshqa til so'zlari (alkash, bratan, molodes kabi varvarizmlar) ham qo'llanadi. Bunday hodisalarni Shavkat Rahmon ijodida qo'llanishini ko'rib chiqamiz:

Shiddatli nolalar, sadolar
gurkirab yuksalar yonimda.
Gurkirab yuksalar samoviy
arg'anun musiqa qonimda. (S.195-bet)

Mazkur satrdagi *yonimda, qonimda, musiqa, gurkirab, yuksalar* kabi so'zlar **umumnutq qatlam** so'zlaridir. *Nola, sado, arg'anun* so'zlari ham **badiiy nutqqa** xosdir. Bu leksemalarning barchasida ijobiy emotsional-ekspressivlik mavjud bo'lib, faqatgina nola so'zida salbiy emotsional-ekspressivlik namoyon bo'lgan.

Nola leksemasi "*hasrat ifodalovchi ayanchli ovoz; afg'on, fig'on, faryod*" (O'TIL.II.508-bet) Nola leksemasi badiiy uslubda qo'llanib, deyarli so'zlashuv uslubida ishlatilmaydi.

Ko'rdim azim filday bujur tanida
qilichlar izlarin,
o'qlar izlarin.
soatlab tingladim,
biroq behuda,

chinordan behuda sado izladim. (S. 181-bet)

Mazkur misralarda *ko'rdim, filday, qilich, iz, o'qlar, soat, chinor* kabi so'zlar **umumnutq qatlamga** xosdir. **Bujur** so'zi "*ajin bosgan, burushiq; cho'tir*" ma'nosini bildiradi. Bu so'z mazkur misrada "*g'adir-budur, o'ydim-chuqur*" (71, I.429-bet) ma'nosida kelmoqda. Bu o'rinda ma'no ko'chishning metafora usulidan o'rinli foydalanilgan.

Yog'iladi mayin sas, sado,
Yog'ar, yog'ar shomurut qori,
Naqadar xush jodugar navo,
Ozod, qora sochlar ifori. (S.15-bet)

Mazkur misrada *yog'iladi, mayin, qor, yog'ar, ozod, qora, soch, xush, sas, jodugar* kabi so'zlar **umumnutq qatlam** so'zlaridir. *Sado, navo, naqadar, ifori* so'zlari **badiiy nutqqa** xosdir. Bu leksemalarning barchasida emotsional-ekspressivlik mavjud.

Sado so'zi "*tovush, ovoz*" (71, II. 10-bet) ma'nosini anglatadi va bu so'z badiiylilikni oshirish maqsadida qo'llangan.

Naqadar so'zi "*qay darajada, qanchalik, qanday*" so'zlari bilan sinonim bo'lib, she'riy nutqda ekspressivlikni oshirish maqsadida qo'llangan.

Daryoga aylandim,
o'ychan daryoga,
ruhimda qadimgi osoyishtalik.
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni,
ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari. (S.146-bet)

Ushbu misrada *daryo, aylanmoq, o'ychan, dunyo, ruh, qadimgi, ishlari* kabi so'zlar **umumnutq qatlamga** xosdir. **Dolg'a** so'zi poetik nutqqa xos bo'lib, "*qattiq to'lqin, po'rtana*" (71, I.232-bet) ma'nosini anglatadi.

Shavkat Rahmon ijodini til xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, she'rlarida uchraydigan so'zning shakl va ma'no munosabatlari yetarlicha go'zal va betakror ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bunda sinonimlarning maftunkor na'munalari va

ularning qo'llanish o'rinlari, ma'nodosh so'zlarning turli ko'rinishlaridan ustalik bilan foydalanganligi e'tiborimizni tortadi.

Bu o'rinda yozuvchining yana bir ijodiy mahoratini ko'rishimiz mumkin.

Ulug' dard chayqalgan jismim bor xolos,
maydonlarga borsam shior ko'tarib,
har yondan gurillab bosadi vosvos
manqurtlar rezinka to'qmoq o'qtalib. (S.346-bet)

Mazkur bandda *ulug', dard, jism, maydon, shior, ko'tarmoq, rezinka, o'qtalmoq* so'zlari **umumnutqqa** xosdir.

Gurillab so'zi "*gur,, etgan ovoz chiqarmoq; gulduramoq*" (71, I.200 -bet) ma'nosini ifodalaydi. Mazkur o'rinda bu so'z salbiy ekspressivlikni ta'minlagan va she'rdagi badiiylikni yanada oshirgan.

Manqurt so'zi tarixiy termin bo'lib, "*o'tmishda,...xotirasi,aql-idroki,umuman,insonga xos xislat-fazilatlardan mahrum etilgan shaxs*" (71, II.541-bet) ma'nosini ifodalaydi.

Ushbu banddagi kabi xususiyatlar Shavkat Rahmon ijodida juda ko'plab uchraydi. Bir bandning o'zida turli leksik vositalardan foydalanib, she'rdagi nafislik, nozik ma'no qirralarini oshirgan.

Adabiy nutqning bir ko'rinishi rasmiy uslubdir. Rasmiy nutqning muhim xususiyatlaridan biri soha terminlarining qo'llanilishidir. Ayni shu holat Shavkat Rahmon ijodida ham ko'zga tashlanadi.

Ortiqcha siylagan xudo bu yerni,
odamdan azizroq **paxta, pillasi**,
asal-qand mevasi, **qorako'l** teri,
sahrolar qa'rida yotgan **tillasi**. (S. 346-bet)

Mazkur misradagi *paxta, pilla* terminlari qishloq xo'jaligiga oid, *qorako'l* termini chorvachilikka oid, *tilla* ximiyaviy element.

Paxta „g'o'za o'simligining chigitda hosil bo'ladigan tolalardan tashkil topgan oppoq yumshoq mahsulot" (71, I.580-bet).

Pilla „ipak qurti g‘umbakka aylanish davrida o‘z ustiga o‘rab hosil qilgan ipak qobiq, ipak qurtining mahsuli“ (71, I.585-bet).

Qorako‘l „qorako‘l qo‘yi asosan O‘zbekistonning Qorako‘l rayonida yetishtirilgan: shunday qo‘y qo‘zisining yuqori navli jingalak terisi, mo‘ynasi “ (71, II. 601-bet).

Tilla „ximiyaviy element, sariq – qizg‘ish rangli qimmatbaho nodir metall; oltin“ (71, II.177-bet)

Gap uqtirib bo‘lmaydi biroq,
yig‘laydilar **sannashib**, to‘lib,
oqib borar zangor vodiya
ko‘zyoshlari bir daryo bo‘lib... (S.56-bet)

Mazkur baytda keltirilgan **sannamoq** so‘zi *etnografiyaga* oid termin bo‘lib, „*duo o‘qimoq, aytib yig‘lamoq*“ (71, II. 19-bet)ma’nosini anglatadi.

Ushbu so‘zlar rasmiy uslubga xos bo‘lsa-da, ijodkor bu so‘zlardan she’rdagi ekspressivlikni ta’minlash maqsadida foydalangan.

Voqealikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalash va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etish badiiy uslubga xosdir. Obrazlilik va estetik ta’sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Nutqning ma’lum ko‘rinishiga xoslangan shakllaridan biri so‘zlashuv nutqidir. So‘zlashuv nutqi ko‘p nasriy asarlarda qo‘llanadi. Poetik nutqda so‘zlashuv uslubi kamroq uchraydi.

Ey, desam,
Atirgul yomon titradi,
To‘kilib ketdimi dedim hidlari,
Nuragan devorning bergi yog‘ida
Buzilgan yuragim nozik pitradi. (S.148-bet)

Pitradi so‘zi „*serharakat, urunchoq*“ (71, I.589-bet) ma’nosini bildirib, **so‘zlashuv uslubiga** xosdir. Yozuvchilar o‘z asarlarini xalq tiliga yaqin bo‘lgan holda yaratadilar. Badiiy asar kitobxonni hayot voqeligi bilan tanishtiradi. Badiiy asarda dialektizmlar yozuvchi g‘oyasini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib

xizmat qiladi [49, 49]. Ijodkor bu soʻzni qoʻllab, badiiy taʼsirchanlikni kuchaytirgan.

Tokim yovuz tumshugʻin suqsa,
ajdodlarning aziz goʻriga,
jim turmasin **qoʻymijozli** xalq,
bas kelolmay bitta boʻriga.

Mazkur banddagi **qoʻymijoz** soʻzi *soʻzlashuv uslubiga* xos boʻlib, “yuvosh, muloyim, moʻmin-qobil ” (71, II.631-ber) maʼnosini ifodalab, sheʼrga oʻziga xos mazmun-mohiyat berib, sheʼrning badiiy qimmatini oshirgan va soʻzdan oʻrinli foydalanilgan. Shoir sheʼrlarida soʻzlashuv uslubining oʻziga xos koʻrinishi boʻlgan varvarizmlardan unumli va oʻrinli foydalanib, betakror misralar yaratgan.

Notiqlar esdalik aytar avlodga:
bir payt, azizlarim,
Maskoʻp orqali

Borib kelar edik qoʻshni afgʻonga. (S. 321-bet)

Ushbu misrada *Moskva* soʻzini soʻzlashuv uslubiga xos **maskoʻp** tarzida qoʻllagan, maʼno koʻchishining metonimiya usulidan foydalangan.

Samoviy torlari kesilgan,
Xudoga tenglaydi oʻzlarin,
Zaiflar ketidan ezilgan

Ustaldan ololmas koʻzlarin. (S.322-bet)

Mazkur bandda *stol* soʻzi **ustal** tarzida qoʻllanib, proteza hodisasini yuzaga keltirgan. Proteza talaffuz qulayligi uchun soʻzning boshida tovush orttirilishi [69, 82]

Shavkat Rahmon ijodini tahlil qilar ekanmiz, u nafaqat soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlardan, balki xalq termalari va maqollaridan unumli foydalanib, misralarnin jozibadorligini oshirgan.

Qoʻpordim
yuragim hayqirigʻini,
hayqiriq zaminu koʻkka sigʻmadi.

Bu yomon holimdan yorildi tog‘lar,

“ Suvlari sirqirab toshlar yig‘ladi ”¹ (S.190-bet)

Mazkur misrada *“suvlari sirqirab toshlar yig‘ladi ”* xalq termasini qo‘llangan bo‘lib, ushbu termadan she‘rdagi ekspressivlikni ta‘minlash maqsadida foydalangan.

O‘zbeklar azaldan mehmonchi eldir,

Mehmon otangdan ham ulug‘, deydilar. (S.206-bet)

“Mehmondo‘stlik” deb nomlangan she‘ridan olingan ushbu parchada *“mehmon otangdan ham ulug‘”* maqoli qo‘llangan bo‘lib, maqol she‘rning butun ma‘no-mohiyatini ochib bergan. She‘rda bu maqol oddiy, sodda bo‘lsa-da, o‘rinli qo‘llanilib kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o‘ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko‘ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go‘zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi, Vatani uchun yoib kuylashi va yana ko‘pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so‘z boyligiga ega bo‘lishi, so‘zning ta‘sir qudratini his eta olishi, har bir so‘zni ma‘no noziklarigacha ilg‘ab olishi so‘z o‘yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o‘rin tutadi.

Iste‘dodli o‘zbek shoiri Shavkat Rahmon she‘riyat osmonida tutgan o‘rni beqiyosdir. Uning she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar va so‘z qo‘llash yo‘sinlari etirofga sazovordir. Shoir ijodini o‘rganish, uning ijod qirralarini ochish, tahlil qilish, uning fikrlarini yana bir ilg‘ashimizga asos bo‘ladi.

Mazkur bobda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, eskirgan so‘zlarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qildik. Shavkat Rahmon she‘riyatida turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar borligiga guvoh bo‘ldik, hattoki qo‘shimchalarning eskirgan shaklini qo‘llab o‘ziga xos uslubiy bo‘yoqlarni hosil qilgan. Bu ijodkorning mahoratini yana bir bor isbotlaydi.

¹ Xalq termasidan

Nutq ko‘rinishiga xoslangan leksemalar xususida fikr-mulohazalar yuritib, buni ijodkor she‘riyati misolida ko‘rib chiqdik. Uslublardan o‘rinli foydalanib, she‘rlarida o‘ziga xoslik shakllantirgan. Hattoki, ilmiy uslubdan ham o‘zining badiiy maqsadini oshirish yo‘lida unumli foydalangan.

So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri erkinlikdir. Ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni oddiy, hammaga tushunarli bo‘lgan so‘zlarda yetkazadi. Bundan ham o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xalq termalari va maqollaridan foydalanib, betakror misralar yaratadi.

UMUMIY XULOSALAR

Adabiyotimizda yirik iste'dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo'ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o'ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko'ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go'zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko'pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so'z boyligiga ega bo'lishi, so'zning ta'sir qudratini his eta olishi, har bir so'zni ma'no noziklarigacha ilg'ab olishi so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o'rin tutadi. O'zbek adabiyotining istedodli shoirlaridan biri Shavkat Rahmon go'zal misralari, qator tarjimalaridagi bunday xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi o'ziga xoslikdir.

Iste'dodli o'zbek shoiri Shavkat Rahmonning she'riyat osmonida tutgan o'rni beqiyosdir. Bu ijodkor yurakning ovozi, sozi, hasrat va quvonchi timsoli. U hech kimni takrorlamaydi, hatto eslatmaydi. Uning she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar va so'z qo'llash yo'sinlari etirofga sazovordir. Shoir ijodini o'rganish, uning ijod qirralarini ochish, tahlil qilish, uning fikrlarini yana bir ilg'ashimizga asos bo'ladi.

Shavkat Rahmon she'rlarida miqyosli tafakkur madaniyati va tahlil mahorati bilan yuksak ma'naviy intilishlar va badiiy did birlashib ketgan.

Ishimizning birinchi bobida Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llangan leksemalarning semantik xususiyatlarini tahlil qildik. Dastlab shoir ijodidagi ko'p ma'noli so'zlar haqida fikr yuritdik. Shavkat Rahmon she'rlarida ko'pma'nolilik hodisasidan mahorat bilan foydalanib, ma'no ko'chishning barcha usullarini ustalik bilan qo'llab, she'rlarida o'ziga xos mazmundorlik, joziba va ta'sirchanlikni ta'minlagan.

Ma'no ko'chishning barcha turlaridan, ayniqsa, metafora va metonimiyadan unumli va o'rinli foydalangan.

Metafora poeziyada turli ijodkorlarda mahoratiga qarab tulicha qo'llaniladi. Shavkat Rahmon metofofalarining o'ziga xosligi ularning qamrovida va mavzuga mayin (**odamlar qaynagan**), tabiiy romantik ohangdoshligida (**g'o'zalarning qulog'i, mo'min musichalar**). Unda ayrim obrazlarga emas, balki butun she'r metofofara harakatiga qurilganligi, metafora poetik tilga, obraz mantiqiga, she'riy tafakkur boyligiga aylanganligiga guvoh bo'ldik.

Metonimiyaning turli ko'rinishlari: narsa-buyumning nomi bilan shu narsa-buyumning hosila ma'nosi atalishi (*masko'p orqali, afg'onga*); narsa-buyum nomiga asoslangan o'lchov birligi bo'lishi (*oylar o'tdi*)dan mohirona foydalangan.

Shavkat Rahmon ijodini til xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, she'rlarida uchraydigan so'zning shakl va ma'no munosabatlari yetarlicha go'zal va betakror ekanligiga guvoh bo'lamiz. Omonim so'zlar (*yosh, kun, kunda, o't, tuman*) va omomorfema (*unutganim* – sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha, *so'lim* – sifat so'z turkumi, *o'lim* – ot so'z turkumi) ning go'zal qo'llanishlari, sinonimlar (*ko'ks – bag'ir, osmon – samo, ulkan – ulug'vor, tamoil – odat*)ning maftunkor namunalari, hamda antonimlar (*o'tmish – kelajak, oq –qora, yaxshi – yomon, shirin – achchiq*)ning turli ma'no ko'rinishlari (*go'zal – og'ir, yorug' – yog'iy, ko'ngli ochiq – munofiq, ayyor*)dan ustalik bilan foydalanganligiga guvoh bo'ldik. Shoir she'rlari adabiy jihatdan mukammal bo'libgina qolmay, balki uning asarlari til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi va so'zga boyligi ko'zga tashlanadi.

Shoir ijodidagi o'z qatlamga mansub (*bugun, bola, qilich, yil, kim, ko'z, oldin, yaproq, tiyrak*) va arab tilidan (*adolat, ayyom, inson, junun, qattol, xotirjam, qalb, tafakkur*) o'zlashgan so'zlar, fors-tojik tilidan (*xob, yovar, andom, talx, nola, panj*) o'zlashgan so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlarini tahlil qildik. Shuningdek, rus tilidan (*rezina*), ingliz tilidan (*buldozer*), grek tilidan (*faylasuf*) o'zlashgan so'zlar ham uchraydi.

Ikkinchi bobda Shavkat Rahmon ijodidagi uslubiy bo'yoqdorlikni ifodalanishi haqida fikr yuritdik. Uslubiy bo'yoqdor so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini, eskirgan so'zlarning o'ziga xos jihatlarini tahlil qildik.

Nutq ko‘rinishiga xoslangan leksemalar xususida fikr-mulohazalar yuritib, buni ijodkor she’riyati misolida ko‘rib chiqdik.

Shavkat Rahmon ijodi zamondoshlarining diqqat-e’tiborini jalb etdi – tosh qotgan qalblarda his-tuyg‘u, fikr chechaklarini o‘stirdi. Uning asarlari til xususiyati, o‘ziga xosligi bilan kitobxonlar e’tiborida qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. Тошкент. Ўзбекистон, 1993. 8-б.
2. Karimov I A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. Toshkent: 2001. 12-b.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008, 83-б.

Monografiya va alohida nashrlar:

4. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. - Т.: Фан, 1981, 38-47 б.
5. Абдурахмонов Х, Пинхасов Ё. Ўзбек тили. Тошкент: 1982. 16-б.
6. Азизов А. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1963, 29-б.
7. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1985, 112-б.
8. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "To'lqin", 2005. 155-190; 211-212-b.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent : "Fan", 2007. 57-73-b.
10. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 238-bet.
11. Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. Тошкент. 1953, 117-б.
12. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. Москва, 1978, с. 56.
13. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. III–нашр. Тошкент. 1970, 78-б.
14. Мирзаев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Машқлар тўплами. Тошкент, 1978, 39-б.
15. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, 1975, 93-б.
16. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент. «Ўқитувчи» 1993, 30 б.
17. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995, 12-24-б.
18. Расулов Р., Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш. Тошкент, 1992, 3-9-б.
19. Rahmatullatev Sh . Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006. 58-bet.
20. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiy tili. Toshkent: 2009. 83; 114-b.
21. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент, 1996, 3-11-б.
22. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992, 120-б.
23. To'xliyev B., Shamsiyev M., Ziyodova J. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: 2006. 70-b.
24. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию М.-Л, 1977. ст.141
25. Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Тошкент: Шарқ, 2012. 56-bet.

26. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980.114-б.
27. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси.-Т., 1974, 29-б.
28. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ, Ўзбек тили стилистикаси. - Т., 1983. - 236-237 б.
29. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Тошкент. 1977, 7-23; 46-50-б.
30. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981, 79-124-б.
31. Қиличев Б . Ўзбек тилида партонимия. Тошкент, «Фан», 1997, 3-12-б.
32. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент, «Фан», 1982, 12-62-б.
33. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро, 2009, 67-68-б.
34. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. - Т., 1993. – 67 б.
35. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977. -15-19; 111-б.
36. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё.. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Т., 1992, 102-б.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

37. Исабеков Б. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик антонимлар. Номз.дисс.автореф. Тошкент, 1973.
38. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Докт...диссер...автореф. Тошкент, 1993, 48 б.
39. Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик семантик табиати. Номз.дисс.автореф. Тошкент, 1973.

Ilmiy maqolalar va tezislar:

40. Алиқулов А. Лексеманинг таснифига доир. ”Тил ва адабиёт таълими” журн. 2005, 2-сон, 46-47-б.
41. Бегматов Э., Неъматов Ҳ., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (Систем лексикология тезислари). «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1989, 6-сон, 35-40- б.
42. Бозоров О. Градуонимиянинг антонимия ва синонимияга муносабати. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1996. 4 –сон.
43. Дониёров Р., Юнусов Р. Ўзбек тилида антонимлар. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1987, 4-сон.
44. Жалилова Н. Ўз қатлам асосида қон-қариндошлик атамаларининг шаклланиши. ”Тил ва адабиёт таълими” журн. 2009, 1-сон, 60-б.
45. Жонузоқов Ш. Кўп маъноли сўзлар ва уларнинг фоновариантлари. ”Тил ва адабиёт таълими” журн. 2007. 3-сон, 44-б.
46. Жуманиёзов Р. Синонимларнинг таърифи масаласи. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1970, 1-сон.
47. Исабеков Б. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик антонимлар. Номз.дисс.автореф. Тошкент, 1973.

48. Исамухаммедова С. Синонимларнинг турлари. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1964, 1-сон.
49. Муродова Н. Ўзбек адабий тилининг бойиб боришида шеваларнинг ўрни. "Тил ва адабиёт таълими" журн. 2004. 6-сон, 49-б.
50. Нарзиева М. Шахсни ёш белгисига кўра атовчи сўзлар группасининг ички классификацияси ҳақида. «Ўзбек тилини синхроник ўрганиш масалалари» Тўплам, Тошкент. 1987.
51. Неъматов Ҳ. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1988, 6-сон.
52. Нуруллоҳ Муҳаммад Рауфхон. Шеърятга кўчган шахсият. //Шарқ юлдузи. 2011. №4. 172-бет.
53. Раҳматуллаев Ш. Семик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. 1979, 6-сон.
54. Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент т таҳлилининг баъзи натижалари. "Ўзбек тили ва адабиёти" журн., 1986, 3-сон.
55. Сафарова Р., Бақоҳўжаева. Лексик гипонимия ва синонимия. «Ўзбек тилини синхроник ўрганиш масалалари» Тўплам, Тошкент, 1987.
56. Султонова М. Тилшуносликнинг ноадабий қатламида сленг сўзлар. "Тил ва адабиёт таълими" журн. 2007. 3-сон.17-б.
57. Тўйчибоев Б. Синтактик синонимларнинг лексик ва морфологик синонимлар билан муносабати. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент. 1973, 6-сон.
58. Улуғбек Ҳамдам Шоир – “Тузалмас” ҳақиқатпараст. /Шавкат Раҳмонни хотирлаб. –Т.: Шарқ, 2012. 114-115-бет.
59. Усмонов С. Ўзбек тилида антонимлар. «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари». 1958, 2-сон, 33-34-б.
60. Қиличев Б. Тил ва нутқни фарқлаш хусусида. «Тил ва адабиёт таълими» журн. Тошкент, 2002, 6-сон.
61. Қиличев Э. Антонимларнинг стилистик роли. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. Тошкент, 1984, 2-сон.
62. Қобилжонова Г. Метафора моҳияти. "Ўзбек тили ва адабиёти" журн. 2007. 6-сон.
63. Қўчқортоев И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида. ТошДУ илмий асарлари. 359-чиқиши. Тошкент. 1969.
64. Ҳайдаров А. Бадиий услубнинг фонетик воситалари. "Тил ва адабиёт таълими" журн. 2007. 2-сон. 36-б.

Lugʻatlar:

65. Ахманова О.С. Словарь лингвистический терминов. Москва, "Наука", 1966, 615 с.
66. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. Т.: 1984.
67. Раҳматуллаев Ш., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1985.
68. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 1-том. М., 1981, 209, 212-б.

69. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2002, 74-82-б.
70. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент. 1974. 262-бет.
71. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 2-том. М., 1981, 457-б.
72. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006-2007.

Badiiy adabiyotlar:

73. Шавкат Раҳмон "Рангин лаҳзалар". –Т. , 1978. 10-бет.
74. Шавкат Раҳмон. Сайланма. Тошкент: "Шарқ", 1997.
75. Шавкат Раҳмон. Абодият оралаб. –Тошкент: Моварауннаҳр, 2012.

Elektron manbalar:

76. Мусулмон Намоз. Туманларни қўпорар тоғлар. [http// kh-davron. uz](http://kh-davron.uz) сайти.
77. Норов О.. Уйғоқ виждон куйчиси. [http// kh-davron. uz](http://kh-davron.uz) сайти.
78. Муллаҳўжаева Р.. Шавкат Раҳмон – "Шоирлик – қисмат". [http//e-adabiyot.uz](http://e-adabiyot.uz) сайти.